



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
talim vazirligi**

Namangan Davlat universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fakulteti


Ijtimoiy madaniy faoliyat yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Raxmonova Shaxnozaning

1920-1930 yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot
mavzusidagi

Bitiruv Malakaviy Ishi



Ilmiy rahbar:

U.Mansurov

NAMANGAN-2011

Soʻz boshi.

Jamiyatimizda yuz berayotgan tub iqtisodiy, siyosiy, madaniy oʻzgarishlar oʻtmishga va bugungi tariximizga yangicha qarashlarni vujudga keltirish tabiiy xoldir.

Oʻzbekiston oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻlini belgilayotgan davrda tarixga, ayniqsa, 20-yillardagi tarixiy voqyealikka, davr xodisalarga qiziqish qonuniy ravishda kuchaydi. Zero, hozirgi vaqtda tarixiy haqiqatni toʻgʻri baholash zarurati kun tartibidagi muhim masalalardan biri boʻlib qoldi. Binobarin, tarix voqyealariga real baho berish ma'naviyatimizning tiklanayotganligidan nishonadir. Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimov aytib oʻtganidek: “Halqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish Oʻzbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat oʻz xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi boʻlmaganidek, oʻz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham boʻlmaydi”.

Tarixiy fanlarning eng muhim masalalarini chuqur oʻrganishga qiziqish kuchaygan hozirgi vaqtda ziddiyatli 20-30 yillardagi Oʻzbekiston ijtimoiy-madaniy hayotini atroflicha, har tomonlama oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu davr voqyealarining oʻrganilishi ibratli saboqlar olishga, hozirgi davr voqyealarini tushunishga ham xizmat qiladi.

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-bob. O‘zbekistonda 1920-1930 yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1.1 O‘rta Osiyo respublikalarida sovetlarning 20-30 yillarda yuritgan mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari.....

1.2. O‘zbekistonda sanoatlashtirish va jamolalashtirish siyosati va uning oqibatlari

II-BOB. XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda madaniy hayot.

2.1. Madaniy qurilish maorif va fan rivojining asosiy yo‘nalishlari va muammolari.....

2.2. Milliy adabiyot va san'atning rivojlanishidagi ziddiyatlar.....

2.3. O‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyatimizda yuz berayotgan tub iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlar o'tmishga va bugungi tariximizga yangicha qarashlarni vujudga keltirish tabiiy xoldir.

O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini belgilayotgan davrda tarixga, ayniqsa, 20-yillardagi tarixiy voqyealikka, davr xodisalarga qiziqish qonuniy ravishda kuchaydi. Zero, hozirgi vaqtda tarixiy haqiqatni to'g'ri baholash zarurati kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo'lib qoldi. Binobarin, tarix voqyealariga real baho berish ma'naviyatimizning tiklanayotganligidan nishonadir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov aytib o'tganidek: "Halqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"¹.

Shu nuqtai nazardan qaraganda bugungi kundagi ko'pgina fojialarimiz va qiyinchiliklarimiz keyingi o'n yillarda umuminsoniy qadriyatlardan chekinganimizning oqibatida yuz berayotganligi shubha tug'dirmaydi.

O'tmishga, bo'lib o'tgan tarixiy burilish natijalariga murojaat qilargan millionlab odamlar ba'zan g'ayriihtiroyiy ravishda, hozirgi zamonda ham inqilobiy to'ntarishlarni amalga oshirish mumkinligiga ishonch xosil qiladilar. Tarixiy voqyealarning tajriba va saboqlaridan hozirgi sharoitda foydalanishga harakat qiladilar.

Tarixiy fanlarning eng muhim masalalarini chuqur o'rganishga qiziqish kuchaygan hozirgi vaqtda ziddiyatli 20-30 yillardagi O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotini atroflicha, har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek,

¹Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston. 1993. –B. 78.

bu davr voqyealarining o'rganilishi ibratli saboqlar olishga, hozirgi davr voqyealarini tushunishga ham xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi 1920-1930 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot masalalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning bosh maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal qilishga asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

► O'rta Osiyo respublikalarida sovetlarning 20-30 yillarda yuritgan mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari o'rganish;

► XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda madaniy hayotida yuz bergan voqyealarni materiallar asosida yoritib berish.

► O'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolari o'rganish.

Mavzuni o'rganilish darajasi. Barcha ijtimoiy fan vakillari, tarixchi olimlar O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayoti tarixi bilan doimo qiziqib kelganlar. O'tgan yillar mobaynida tarixshunos fani ushbu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar bilan boyitildi.

O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayoti tarixi masalalariga 20-30 yillaridayoq e'tibor berila boshlandi. Bu yillarda asosan matbuot maqolalari va xajmi unchalik katta bo'lmagan asarlar yaratilib, ularda O'zbekistondagi sotsialistik o'zgarishlar jarayoni o'z aksini topgan edi. Bu asarlar ko'pincha davlat rahbarlari tomonidan yozilgan bo'lib, ilmiy jihatdan qimmatga ega bo'lmagan, ko'proq targ'ibotchilik xarakteriga ega bo'lgan asarlar edi. Shu bilan birga o'sha davrda yaratilgan asarlar garchand chuqur tahlil etilmagan, nazariy jihatdan umumlashtirilagan bo'lsa-da, xujjatli dalillar asosida, tarixiy voqyealar sodir bo'lgan vaqtda yaratilganligi bilan qimmatlidir. G.Safarov, A.Ikromov, S.Xo'janov, D.Manjara, T. Risqulov, F.Xo'jaev va boshqalarning asarlari ana shunday asarlar jumlasiga kiradi².

²Safarov G. Kolonialnaya revolyusiya. – Moskva, 1921;Majara D. Oktyabrskaya revolyusiya i grajdanskaya voyna v Turkestane. –T. 1972; Ikromov A. Izbrannye trudy. –T. 1974. Ryskulov T. Izbrannye trudy. –Alta-Ata: Kazaxstan. 1984.

O'zbekistonning bu sohadagi tarixini o'rganishga X.Inoyatov, X.Tursunov, A.A'zamxo'jaevlar o'ziga xos xissa qo'shdilar³. Shuningdek, tarix fanining o'shbu sohasiga hozirgi kun nuqtai nazaridan yangicha yondashuv R.H.Aminova, F.B.Isxoqov, R.X.Karimov, D.A.Alimova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari va asarlarida ifoda etiladi⁴. Bu asarlarda va tadqiqotlarda O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayoti tarixi masalalari, respublikada siyosiy tizimining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yer-suv islohoti, madaniy qurilishda, milliy kadrlarni tayyorlashda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar ochib beriladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik uslublarini shakllanishiga O'zbekiston milliy tarixshunosligini o'rganish, ko'p yillar mobaynida man qilingan va mustaqillik sharofati bilan yuzaga chiqqan M.Behbudiy, A.Avloniy, F.Ho'jaev, A.Fitrat kabi jadidlarning asarlari bilan tanishish yordam berdi⁵.

Mintaqamizning G'arb va Sharqni bog'lovchi muhim savdo yo'llari tutashgan joyda joylashganligi bois bu hududdan ko'plab sayyohlar, savdogar va sarkardalar o'tishgan. Bu tarixiy aloqalar ildiziga to'xtalib: "Tarixan hozirgi O'zbekiston hududi shunday joy bo'lganki, bu yerda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin savdo aloqalari va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan",-deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov⁶.

«Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayo'tgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart"⁷.

³Inoyatov X. Pobeda Sovetskoy vlasti v Uzbekistane –T. 1967; Tursunov X. Natsionalnaya politika Kommunisticheskoy partii v Turkestane /1917-1924/. –T. 1971; A'zamxo'jaev A. O'zbekiston SSR ning tashkil topishi va rivojlanishi. –T. 1974.

⁴ Aminova R. Agrarnye preobrazovaniya v Uzbekistane 20-x godov // SNU- 1989. №9; Karimov R. Sotsialno-ekonomicheskoe razvitie Uzbekistane v 1921-1925 gody: uzlovnye aspekty, istoricheskiy opyt.–T. 1990; Alimova D. Hujumga zarurat bormidi? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. sentyabr.

⁵Avloniy A. Tanlangan asarlar –T.:Ma'naviyat. 1998; Fitrat A. Oila. –T.: Ma'naviyat. 1998; Xo'jaev F. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. –T.:Fan. 1996.

⁶Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1996. 1-jild. – B.42.

⁷Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi ` www. gov.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida⁸ o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga oid bildirilgan fikr va mulohozalari, xulosalari tadqiqotning metodologik asosini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

I-BOB. O‘zbekistonda 1920-1930 yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

1.1 O‘rta Osiyo Respublikalarida sovetlarning 20-30 yillarda yuritgan mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari.

Sovetlar hukumati va kompartiya amalga oshmaydigan va shirin xayoldan iborat «sotsializm va kommunizm» haqidagi dastur, shior va chaqiriqlar asosida

⁸ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston. 1999; Tarixiy xotirsiz kelajak yo‘q. – T.:O‘zbekiston. 1998; Olloh qalbimizda va yuragimizda. –T.:O‘zbekiston 1999; O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O‘zbekiston 1997; Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kotsepsiyasi. –T. O‘zbekiston. 2010; Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O‘zbekiston. 2011.

amalda Rossiyaga nisbatan ham ayanchliroq va dahshatliroq mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Bu siyosat «Kommunistik firqaning lenincha milliy siyosati» deb atalmish balandparvoz, havoyi va g'irt yolg'on, faqat targ'ibot va tashviqotdan iborat g'oya va qarashlarda ko'klarga ko'tarib maqtaldi.

Sovet hukumati va kompartiya o'zining bu strategik bosh dasturiy maqsadini juda ustalik, ehtiyotkorlik va ayyorlik bilan rejali suratda, ammo og'ishmay amalga oshirdi. U o'z faoliyatida mustamlaka asoratida yashayotgan millatlarda shubha uyg'otmaslik maqsadida milliy masalada ikkita asosiy xavf bor: biri buyuk davlatchilik shovinizmi va ikkinchisi mahalliy millatchilik degan aqidaga amal qildi⁹. Kompartiya millatchilikning qaysi biri xavfli: buyuk davlatchilik shovinizmimi yoki mahalliy millatchilikmi? degan savolga millatchilikning qaysi biriga qarshi kurash susaytirilgan bo'lsa, o'shanisi xavfli deb e'lon qildi. Amaliy faoliyatda esa sovetlar tarixida buyuk davlatchilik shovinizmi kasaliga muhtalo bo'lgan va u bilan zaharlangan, ushbu kasallik tufayli Turkistonda tub yerli aholini sonsiz-hisobsiz dahshatli qirg'inlar qilgan, shahar va qishloqlarni yondirib, kulini ko'kka sovurgan «buyuk og'alar»dan birortasiga biror-bir keskin chora ko'rilgan emas. Holbuki, buyuk davlatchilik, shovinizmi va mustamlakachilik siyosati har qanday mahalliy millatchilikning aks sadosidir. Bu narsaga ajablanishning hojati yo'q. chunki sovetlar davlati va kompartiyaning hiech qachon qabul qilgan qarori bilan amalda qiladigan ishi bir xil bo'lmagan, doimo birinchisini ikkinchisi inkor etgan. O'zining qonuniy va adolatli milliy haq-huquqini talab qilgan mahalliy millat vakillari esa darhol millatchi sifatida yo'q qilib borildi. Bunga Turkiston o'lkasi xalqlari istiqlol uchun va milliy ozodlik uchun kurash yillarida o'z tajribalarida ko'rib to'la ishonch hosil qildilar. 1921-yil, 8-16-martda Moskvada RKP(b)ning X qurultoyi bo'lib o'tdi. Milliy masala bo'yicha qilgan qarorida qurultoy kompartiyaga qarshi ikkita og'machilik borligini ko'rsatdi: buyuk davlatchilik shovinizmi va mahalliy millatchilik. Holbuki bu paytda Turkistonda milliy istiqlol, erk va ozodlik deb ming-minglab tub yerli aholi qizil askarlarning shafqatsizlarcha bosqini tufayli qurbon bo'layotgan edi. Sovetlar hukumati va

⁹Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –T.: Sharq. 2010. –B. 247.

kompartiya mustaqillik, erk va ozodlik uchun kelgindi bosqinchi Qizil askarlarga qarshi adolatli kurashga o'tlangan mahalliy tub yerli vatanparvarlarni «bosmachi» deb atadi, qizil askarlarni esa «xaloskor armiya» sifatida ko'klarga ko'tardi. Albatta bu adolatsizlikni o'z ko'zi bilan ko'rgan xalqning sovet hukumati va Kompartiyadan hafsalasi pir bo'ldi. Dastlabki paytlarda sovet va kompartiyaning tashviqot va targ'ibotiga aldanib uning tomoniga o'tganlar ham tez orada o'z hatolarini tushunib, milliy istiqlol tomoniga yashirin va oshkora suratda o'ta boshladilar¹⁰.

Sovetlar hukumati va kompartiyaning Turkistonda yuritgan milliy-mustamlakachilik siyosatiga baho berib Mustafo Cho'qay quyidagicha yozgan edi: «Kimki milliy masala sohasidagi sovetlar siyosatidan O'ziga zarur saboqlar chiqarib olishni istasa, u Lenin programmasi Turkistonda amalda qanday qo'llanayotganini yaxshilab o'rganib chiqishi va shundan so'nggina biron xulosaga kelishi shart». Darhaqiqat, Turkistonda Sovetlar olib borgan shovinistik mustamlakachilik siyosati lenincha milliy siyosatning naqadar mudhish va dahshatli ekanligini fosh etishda yorqin namunadir. Bo'lib tashla, hokimlik qil! Sovetlar hukumati va kompartiya Turkistonda «Lenincha milliy siyosat» niqobi ostida jahon tarixida ko'rilmagan manfur va reaksion siyosat olib bordi. Bu siyosatning bosh yo'nalishi «bo'lib tashla, hokimlik qil!» dan iborat bo'lib, u azaldan, asrlar osha yagona va bir butun bo'lgan Turkistonni parchalab yuborishga qaratilgan edi. Ana shu manfur maqsadni amalga oshirish uchun 1924-yil, 31-yanvarda O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishini o'tkazish to'g'risida RKP(b) Markaziy qo'mitasining tashkiliy byurosi qaror qabul qildi va bu masalani o'rganib chiqish Y.ye.Rudzutakka topshirildi. Sovetlar davrida yaratilgan tarixga oid manbalarda riyokorlik bilan Turkiston, Buxoro va Xorazmning mahalliy firqa va sovet tashkilotlari 1924-yil boshida «O'rta Osiyoning yangi sovet milliy respublikalarini tashkil etish vazifasini o'rtaga qo'yganligini yozgan edi¹¹.

¹⁰Zakiy Validiy To'g'on. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil, 9-son, 168-169-bet.

¹¹ O'zbekiston CCR tarixi. To'rt jildlik. Bosh muharrir I.Mo'minov, Uchinchi jild. –B. 397.

Sovetlar hukumati va kompartiyaning yagona va bo‘linmas bir butun bo‘lgan O‘rta Osiyoni sun‘iy suratda milliy belgilarga qarab, parchalab tashlashga qaratilgan yo‘li tub yerli musulmon aholining milliy manfaatlariga mutlaqo qarama-qarshi edi. Chunki bu yo‘l azal-azaldan, asrlar osha o‘lkada yagona millat sifatida yashab kelayotgan tili, dini, urf-odati, madaniyati va kelib chiqishi tarixi bir bo‘lgan xalqlarni bo‘lib yuborish, begonalashtirishga xizmat qilar edi. Bu yo‘l o‘lkada Rossiya mustamlakachiligi poydevorini mustahkamlar, o‘lka xalqlarining o‘z milliy o‘choqlari atrofida o‘ralashib qolishlari sababidan, ularning dushman bo‘lgan sovetlar Rossiyasiga qarshi birgalashib, yagona jabhada kurash olib borishlarini qiyinlashtirar edi. Shu boisdan uzoq istiqbolga ziyraklik bilan nazar tashlagan Turkiston o‘lkasining ilg‘or vakillari RKP(b) tashabbusi bilan o‘tkazilajak milliy davlat chegaralanishiga qarshi chiqdilar. O‘sha 1920-yilidayoq T.Risqulov boshchiligidagi bir guruh milliy istiqbol fidoyilari Y.Rudzutak tezislari qoralab, unga qo‘shilmasliklarini ilgari surdilar. Ular turkiy xalqlar tarixiy ildizi jihatidan yagona va bo‘linmasdir, ularning tili, dini, urf-odati, va madaniyati bir ekan yagona Turkiston ularning mushtarak uyi ekanligi g‘oyasini ko‘tarib chiqdilar. Ammo bu fikrni markaziy sovet hukumati va kompartiya MQ si «panturkizm», «panislomizm» va «burjua millatchiligi»da aybladi va uning ilhomchilarini tegishli suratda jazoladi. Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalarda 1924-yil, iyuniga qadar turli xil fikr-qarashlar bayon etildi. Bu fikr-xulosa va munozaralar yagona Turkiston xalqlari o‘rtasida mahalliychilik nizolarining kuchayishiga sabab bo‘ldi. 1925-yil 13-fevralda Buxoro shahrida maxsus qurilgan «Xalq uyi»da O‘zbekiston Sovetlarining II umumoz‘zbek qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tuzish to‘g‘risida» deklaratsiya qabul qilindi. Deklaratsiyada O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi qonuniy rasmiylashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirdi. Qurultoyda respublika davlat hokimiyatining rahbar organi O‘zbekiston SSRning 160 a‘zosi va 44 nomzoddan iborat Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi saylandi¹². Yo‘ldosh

¹²Shamsutdinov R. Karimov Sh. O‘zbekiston tarixidan materiallar. 3-kitob. Andijon. 2004. –B. 356.

Oxunboboev O'zbekiston SSR MIQ ning raisi bo'ldi. Shuningdek, Fayzulla Xo'jaev rahbarligida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibi tasdiqlandi. Shu munosabat bilan RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi nashri bo'lgan «Za partii» jurnalida I.Xonsuvorovning O'zbekistonning davlat arboblari bergan bahosi g'oyatda o'rinlidir: Ana endi menga «Ozod sotsialistik O'zbekiston»ning mas'ul rahbarlari to'g'risida haqiqiy ma'lumot berishga ruxsat etsalaringiz:-«Okrug ijroiya komitetlari prezidiumi a'zolari va raislari arifmetikaning oddiy to'rt amalini ham bilishmaydi, hatto o'z tillarida ham qiynalib yozadilar. Parij va London shaharlari qaysi mamlakatning poytaxti ekanligini ham bilishmaydi, partiya tarixidan mutlaqo bexabar, partiya dasturini o'qib ham ko'rishmagan.

I.Xonsuvorov o'z maqolasida V.I.Leninning «Savodsiz odam siyosatdan tashqarida. Oldin unga alifboni o'rgatish zarur, busiz bu yerda hych qanday siyosat bo'lmaydi, bu siz safsatabozlik, uydirma-bozlik, ertakbozlik, aljirash bo'lishi mumkin, xolos, biroq siyosat bo'lmaydi» degan gaplarini keltiradi. U o'z xulosasini davom ettirib yozadi: «Mana shunday siyosatga tushunmaydigan» odamlarni sovetlar hukumati O'zbekistonda «davlat organlari rahbarlari» qilib qo'yibdi. Mamlakat hayotida, umuman davlatni boshqarishda «safsatabozlik, uydirma, aljirash»lardan ustalik bilan foydalanishmoqda, shu bilan birga bu odamlar butun mamlakatni «partiyaviy ertaklar va aljirashlar bilan to'ldirib bo'lishdi». Xonsuvorovning g'oyatda ibratli bu so'zlari O'zbekiston Respublikasi MIQ sining raisi etib saylangan Yo'ldosh Oxunboboevning o'ziga ham bevosita aloqador edi. Mustafo Cho'qaev bu to'g'rida quyidagilarni yozgan: «Safsatago'ylik, uydirma, aljirashdan iborat siyosatni tushunmaydigan» hukumat tarkibiga nafaqat okrug sovetlari a'zolari va raislari, balkim Sovet O'zbekistonining rahbari MIQ raisi Yo'ldosh Oxunboboevning o'zi ham kiradi. 1925-yil so'nggi saylovda nihoyat O'zbekiston MIQ raisi etib saylangach, uning savodsizligi aniq bo'lib qoldi...

O'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kirdi: a) Sobiq Turkiston Respublikasidan Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uездlarining 41 volosti; Sirdaryo

viloyati Toshkent va Mirzacho'l uezdlarining 24 volosti; Farg'ona viloyati Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uezdlarining 70 volosti va 7 qishloq okrugi (Shohimardon, Vodil va boshqalar); b) sobiq Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Boysun, Buxoro, G'uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va qisman Sariosiyo viloyatlar; d) sobiq Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasidan 23 sovet (tuman) keyinchalik bular Gurlan, Yangi Urganch va Xorazm uezdlarini tashkil etgan edilar. 1929-yilga qadar O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi Turkiston va Buxoroning bir qator tumanlari bazasida tashkil etildi. Ular quyidagilardan iborat edi: sobiq Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasidan Samarqand viloyati Samarqand va Xo'jand uezdlarining 12 volosti va Farg'ona viloyatidan Pomir tumani; Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Sharqiy Buxoro deb yuritiladigan barcha hududlar: Garm, Hisor, Kitob, Qo'rg'ontepa, Dushanba va qisman Sariosiyo viloyatlari bilan birgalikda¹³.

Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati Turkistonning Amudaryo viloyatidan va Xorazmning 3 ta sovet(tuman)idan tashkil topdi. U ma'muriy jihatdan to'rt okrugga: To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglariga bo'lingan.

O'zbekiston SSR hududi respublika tashkil etilgan dastlabki yillarda 312.394 kv. km dan iborat bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston tarkibidagi Tojikiston ASSRning hududi (Xo'jand okrugidan tashqari) 135-620 kv.km edi. O'sha paytda O'zbekistonning aholisi (Tojikistondan tashqari) 3 million 963 ming 285 kishi O'rta Osiyo jumhuriyatlari aholisining yarmini tashkil etardi. 1962-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxat ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda (Tojikistondan tashqari) 4 million 447 ming 555 kishi yashagan. Ularning 47,2 foizi o'zbek, 7,8 foizi tojiklar, 5,6 foizi ruslar, 2,4 foizi qozoqlar, 2,04 foizi qirg'izlardan iborat edi.

O'zbekiston SSRning poytaxti etib Samarqand shahri belgilandi. 1930-yilda poytaxt Toshkent shahriga ko'chirildi. O'zbekiston SSR ning tashkil etilganligi 1927-yil, mart O'zbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining II qurultoyida qabul qilingan)

¹³Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2001. –B. 74.

bilan mustahkamlandi. Mazkur Konstitutsiyaga 1924-yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asos ko'chirma bo'ldi. Milliy chegaralanish bilan ayni paytda iqtisodiy chegaralanish ham o'tkazildi, ya'ni ilgari Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalari ixtiyorida bo'lgan barcha moddiy boyliklar: zavodlar, fabrikalar, yer maydonlari, chorva mollari, madaniy oqartuv muassasalari kabilar davlat tashkilotlari o'rtasida taqsimlanadi. Ana shu taqsimot asosida O'zbekistonga 1195 ming desyatina sug'oriladigan yerlar, 185 ta sanoat korxonasi, 2,590 ming bosh chorva mollari tegdi. 1924-1925-yillarda respublika jami aholisining 85 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmog'ida band edi¹⁴.

O'zbekiston hududidagi sanoat korxonalari asosan yengil sanoat korxonalari bo'lib, 39 tasi paxta tozalash zavodlari, 35 tasi oziq-ovqat korxonalaridan iborat bo'lgan. Ularda jami bo'lib, 87 ming ishchi ishlagan. Ishchilarning asosiy qismi yevropa millatlari vakillaridan iborat bo'lgan. Jumladan, Toshkentdagi «Birinchi may» ustaxonasida mahalliy ishchilar 2,1 foizni, mutaxassis ishchilar orasida esa 0,6 foizni tashkil etgan. Toshkentning «Krasno Vostochnyy» tumanida joylashgan 5 ta korxonadagi 2438 ishchidan mahalliy ishchilar 5 foizni tashkil qilar edi va hokazo. Maorif shoxobchalari, madaniyat va sa'nat muassasalari ham taqsimlandi. O'zbekiston SSRning tashkil etilishi munosabati bilan kommunistik firqa tashkilotlari ham hududiy jihatdan qayta shakllantirildilar. 1925-yil, 8-fevralda Buxoroda O'zbekiston kompartiyasining II qurultoyi o'z ishini boshladi. Unda sovetlar ittifoqi kommunistik (bolsheviklar) firqasi tashkil etildi. Firqa markaziy qo'mitasi saylandi. V.I.Ivanov va A.Ikromovlar markaziy qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandilar. O'zbekiston SSR tashkil etilishi munosabati bilan respublika jamoat tashkilotlari ham shakllantirildilar.

Shunday qilib, markaziy sovetlar hukumati va kompartiya O'rta Osiyo jumhuriyatlarida milliy davlat chegaralanishini o'tkazdi va yagona turkiy xalqlarni parchalanishini ta'minlab, milliy xonadonlarga bo'lib yubordi. Bu bilan u o'lkada buyuk rus mustamlakachiligi siyosatini yurgizish uchun zarur bo'lgan shart-

¹⁴ O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida //Tuzuvchilar M.Jo'raev va boshqalar. –T.: Sharq, 2000. –B.179.

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. 1997. –B. 61.

sharoitlarni yaratdi va shovinistik tartib-qoida va idora qilish talablariga javob bera oladigan boshqarish uslubini joriy etdi. Chunki milliy davlat chegaralanishi shunday ayyorlik va ustalik bilan o'tkazildiki, bu hududda qadim-qadimdan bir ota-onadan tug'ilgan qon-qardoshlardek do'st va ahil bo'lib yashab kelayotgan qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, o'zbek va qoraqalpoqlarning birortasi ularga qancha hududiy maydon yer tekkanligidan qat'i nazar bu bo'linishdan qoniqish hosil qilmadilar, ular milliy chegaralanishdan norozilik saqlanib qoldi. Aslida bolsheviklar o'tkazgan bu milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar, jarayonlar ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizo va keskin holatlar keltirib chiqarishi mumkin edi¹⁵. Bu hol hozirgi kunda ham o'zining salbiy ta'siri aks sadosini ko'rsatmoqda. Norozilikning bosh sababi milliy-hududiy chegaralanishning adolatli o'tkazilmaganidadir, u yoki bu millat vakillari yashaydigan «barcha hududlar»ning o'z respublikasi hududiga ajratib berilmaganligi, u yerlarning boshqa millat nomi bilan ataluvchi jumhuriyatlar qaramog'ida qolib ketganligidir.

2.2. O'zbekistonda sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari

O'zbekiston Respublikasining 1925-yildan keyingi bosib o'tgan yo'li respublika kompartiyasi faoliyati bilan bog'liq. Har qanday milliy mustaqil davlatning asosiy yashash sharti o'zining zamonaviy rivojlangan sanoatiga, og'ir industriyaga ega bo'lishiga bog'liq. Buni yaxshi tushungan bolsheviklar dohiysi sovetlar Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda amalga oshirildi. 1925-1940-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati sovetlar hukumati va kompartiya shovinistik, mustamlakachilik siyosatining tarkibiy, ajralmas qismi

¹⁵Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. 1997. –B. 61.

edi¹⁶. Bunday siyosatni xaspo‘shlash va oqlash maqsadida SSSRda yagona xo‘jalik kompleksi g‘oyasi ilgari surildi. Ushbu g‘oyadan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda xalq xo‘jaligining qaysi tarmog‘ini rivojlantirish masalasini Moskva markazdan turib boshqarar edi. Bu taraqqiyot yo‘nalishi «stalincha besh yilliklar» direktivalarida o‘z aksini topdi va ular kompartiya qurultoylarida tasdiqlanadi. Ana shu direktivalar asosida rivojlangan O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarish taraqqiyotining 1925-1940 yillardagi ahvoli tahlil etiladigan bo‘lsa, shu davr mobaynida respublikada yirik sanoat mahsulotlarini mustaqil o‘zi ishlab chiqara oladigan birorta industriya gigantining bunyod etilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki O‘zbekistonda bunday yirik sanoat gigantlarini qurish sovetlar Rossiyasining milliy mustamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi¹⁷. Mustamlakachilik siyosati yuritishning bunday tartib-qoidasi dunyodagi Angliya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar tarixiy tajribalarida ham tarix sinovidan o‘tgan. Mustamlakachi davlatlar (shu jumladan Rossiya ham) o‘zlari bosib olgan hududlarda tez foyda beradigan, o‘z milliy manfaatlariga javob beradigan va milliy mustamlakachilikka xavf tug‘dirmaydigan siyosat olib boradilar. Sovetlar Rossiyasi ham «ixtisoslashtirish» bahonasida Rossiyaning o‘zida Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalarda og‘ir sanoat korxonalarini qurishga asosiy diqqat-e‘tiborini qaratdi. O‘zbekistonda esa asosan paxtachilikning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlari, aholining yashashi va turmush kechirishi bilan bevosita aloqador bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazolar ishlab chiqaradigan yengil sanoat korxonalarini bunyod etildi. 1925-1940-yillarda qurilib, ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlasiga Bo‘zsuv GeS, Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Termiz, Asaka shaharlarida issiqlik elektrostansiyalari, Olmaliqstroy, Chirchiqstroy elektr kimyo kombinati, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Buxoroda to‘qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodi, Farg‘ona konserva zavodi, Xilkov sement zavodlari, Samarqand, Buxoro va Marg‘ilonda ipak yigiruv fabrikalari, «Chimyon»

¹⁶Shamsutdinov R. Kaimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –T.: Sharq. 2010. –B. 259.

¹⁷ Usmonov Q. Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. –T.: Sharq. 2001. –B. 92.

va «Santo» neft konlarida neft zavodlari, «Toshtram», «Qizil Sharq va Birinchi may ustaxonalari», ko‘plab paxta tozalash, sut-yog‘ tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlar qurildi va qayta jihozlandi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sovetlar davri mafkurasi asosida dunyoqarashi shakllangan tarixchilarimiz bu erishilgan «muvaffaqiyatlar»ga mahliyo bo‘lib, «birinchi besh yillik yillarida 192 ta», ikkinchi besh yillikda... 189 ta» va «uchinchi besh yillik (1938-1942 yillar)ning dastlabki yillarida 134 ta)) sanoat korxonalarini qurildi, deb ayyuhannos soldilar. «Birinchi besh yillik davrida O‘zbekistonda 289 ta sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxonaga qayta tashkil etildi, sanoatning asosiy ishlab chiqarish fondlari 3 baravar neft qazib chiqarish 2,5 baravar, metall ishlash sanoati mahsuloti 6 baravar, sement ishlab chiqarish 3,5 baravar ortdi. yengil sanoatning ko‘nchilik, poyabzal ishlab chiqarish, tikuvchilik sohalari, ip gazlama ishlab chiqarish suratlari muttasil oshib bordi. Holbuki bu sanoat korxonalarining birortasi ham O‘zbekistonning milliy mustaqilligini ta’minlash darajasidagi korxonalar bo‘lmaganligiga bugungi istiqlol kunlarimizda ishonch hosil qilib, unga imon keltirmoqdamiz¹⁸. 1925-1940 yillarda shaharlar, transport va yo‘l qurilishi pochta-telegraf va telefon tarmoqlari rivojlanishida ham o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu to‘g‘risida ko‘p yozilgan¹⁹. Urushdan oldingi va keyingi besh yilliklarda ham O‘zbekistonda barpo etilgan korxonalarining hammasi ham uning o‘ziga tegishli emasligini, ko‘plari, avvalo eng muhimlari markaz tasarrufiga olinganligini nazarda tutish lozim. Agar 1928-yilda O‘zbekistondagi mavjud korxonalarining 81,7 foizi Ittifoqqa tegishli, 14,5 foizi respublika va 3,8 foizi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1930-yillarning o‘rtalariga kelib Ittifoq tasarrufigidagi korxonalar 90 foizni tashkil qilgan edi.

20-30-yillarda O‘zbekistonda sanoat taraqqiyoti bilan monand tarzda ishchilar sinfining ham son jihatdan o‘sganligini ko‘ramiz. Jumladan, 1937-yilga kelib sanoat ishchilarining umumiy miqdori 1,81 ming kishiga yetdi. Bu dastlabki besh yilliklar davomida ishchilarning 8 baravar o‘sganligini ko‘rsatadi. Lekin ular

¹⁸ Rajabova R. Va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. (1917-1993 yillar.) –B. 176—177.

¹⁹ O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitobi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida... –B. 340.

orasida mahalliy millat vakillari ozchilikni tashkil qilar edi. Ayni paytda sovetlar yuritgan buyuk davlatchilik va mustamlakachilik siyosati tufayli mamlakat aholisi o'rtasida o'ziga xos ijtimoiy mehnat taqsimoti vujudga kelganligi ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbekistonga chetdan kelgan yevropa millatlariga mansub aholi asosan shaharlar, posyolkalarda yashab boshqaruv rahbarlik idoralari, zamonaviy fan-texnika bilan bog'liq zavod-fabrikalarda mehnat qildilar. Mahalliy tub yerli aholi esa asosan qishloqlarda yashadi, shaharlarda yashaydiganlari ham yuqori malaka talab qilmaydigan sohalarda faoliyat ko'rsatdilar. Jumladan, Mustafo Cho'qayning bergan ma'lumotlariga qaraganda 1927-yilda yevropa millatiga mansub bosmaxona ishchilari 2,028 kishini tashkil etgani holda, yerli turkistonliklar 389 kishi bo'lgan, metall sanoatida yevropaliklar 3627 kishi, tub yerli aholi 819, yevropali to'quvchilar 8,428 kishi, turkistonliklar 5,767 kishi bo'lgan. Kasaba soyuzidagi tibbiy xizmat xodimlarining 11.388 tasi yevropaliklar faqat 938 tasi turkistonliklar, savdo sohasida yevropaliklar 26.810 kishi, turkistonliklar 2.403 kishi edi.

Xullas, 20-30-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining bosh maqsadi, respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lida borishni ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va uni Rossiya xo'jalik mexanizmining bir yacheykasiga aylantirishdan iborat edi. Shu bois respublikada «sotsialistik sanoatlashtirish» Markazning xohish-irodasi va manfaatlari asosida amalga oshirilidi. Sanoat ishlab chiqarishini belgilash va ishchi mutaxasis kadrlarni shakllantirishda imperiyacha maqsadlar ustuvorlik qildi. Bu tendensiya respublikaning mustaqillikka erishgan davrigacha davom etdi.

Jamoalashtirish siyosati V.I.Lenin ilgari surgan sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismidir. Taniqli tarixchi olimi Rahima Aminova kollektivlashtirishga baho berib bunday degan edi: kollektivlashtirish-ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o'rnatilishining naq o'zginasidir. Partiyaviy-g'oyaviy siyosat hukmronligi tufayli yuzaga kelgan kollektivlashtirish nazariyasi va tajribasi bugunga kelib chilparchin boidi. Kishining ishlab chiqarishdagi mehnatiga haq to'lov o'zaro tenglik asosiga qurilganidan bu siyosat o'zini oqlamadi.

Sovet hukumati va kompartiya mustamlaka asoratidagi o'lkaxalqlarini qun o'rnida ishlatib hisobsiz foyda va daromad olishning eng maqbul shakli bo'lgan kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan uzoq tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan yer-suv islohoti muhim o'rin tutadi. yer-suv islohoti ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1920-yillarning boshlarida o'tkazildi va o'lkada amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanish munosabati bilan ma'lum muddatga to'xtab qoldi. Ikkinchi bosqich esa 1925-1929-yillarni O'z ichiga oladi. 1920-1921-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohotining asosiy maqsadlaridan biri, o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus zamindorlarining yerlarini mahalliy dehqonlarning yerlari bilan tenglashtirish edi. Chunki bu rus kelgindi mujiklari Chor ma'murlaridan juda katta hajmdagi serunum yaxshi yerlarni olgan edilar. Sovet hukumati bu bilan o'zini go'yo mahalliy mehnatkash xalqning «g'amxo'ri» va «mehriboni» qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. O'lkada yer-suv islohoti sovet hukumatining «er to'g'risida»gi dekreti asosida amalga oshirildi va uning bosh maqsadi qishloqda sinfiy tabaqalanishni kuchaytirishdan iborat edi. Sovet va kompartiya korchalonlari bu yerda ham «bo'lib tashla, hokimlik qil» qabilida ish yuritdilar, qishloq aholisini boy va kambag'allarga bo'lib ularning sopini o'zidan chiqarib bir-birlariga qarshi gijgijladilar. 1921-yilda tashkil etilgan «Qo'shchi» ittifoqi xuddi ana shu maqsadda tuzildi. 20-yillarning o'rtalaridayoq uning saflarida 160 ming nafarga yaqin a'zo bor edi. Bu ittifoqqa asosan yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushar edi. Uning faoliyati bolsheviklar tomonidan boshqarilar edi. «Qo'shchi» ittifoqi boylar va ruhoniylarning yerlarini tortib olib, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib berardi. 1921-1922-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida Sirdaryo, Farg'ona, yettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uezdida 1.722.626 desyatini yer musodara qilindi. Ana shu yerlardan 117.512 desyatini yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga berildi va 3 ming xo'jalik tashkil etildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517 ot, 87 tuya, 1042 sigir va 133 eshaklar ham taqsimlab berildi. Bundan tashqari qishloq kambag'allariga mehnat qurollari ham

ulashildi²⁰. yer-suv islohoti davrida ko‘chirib yuborilgan oilalardan 250 ming botmondan ortiq don tortib olindi va shundan atigi 12.8 ming botmoni mahalliy kambag‘al batraklarga bo‘lib berildi. yer-suv islohotining 1925-1929-yillarda o‘tkazilgan O‘zbekiston SSR markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1925-yil, 2-dekabrda «er va suvni natsionalizatsiya qilish», «er-suv islohoti» to‘g‘risidagi dekretiga asosan amalga oshirildi. O‘tkazilgan islohot davomida faqat Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida 254.2 ming desyatina yer jamg‘armasi hosil bo‘ldi. Bu yerlarning 70 foizi «boylar» deb hisoblangan o‘rtahol dehqonlardan tortib olingan edi. Ana shu o‘rtahol dehqonlar 1918-1922-yillarda sovetlardan yer olib, o‘z xo‘jaliklarini tiklab olgan edilar.

Jami bo‘lib butun O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan yer-suv islohoti natijasida 4801 ta xo‘jalik quloq xo‘jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo‘jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg‘armasiga 474393 desyatina yer qo‘shildi. yerlar bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi. Mamlakatda yer-suv islohotini amalga oshirish ishlari bilan viloyat, okrug va tumanlar yer komissiyalari shug‘ullandilar.

Xullas, O‘zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublika qishloq aholisining tarkibida bir qator jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi, kambag‘al dehqonlar kamayib o‘rtahol dehqonlar salmog‘i ortdi. Jumladan yer-suv islohotiga qadar kambag‘al dehqonlar guruhi barcha dehqonlarning 76 foiziga teng edi. yer-suv islohotidan keyin esa, ularning salmog‘i 30 foizga qisqardi va aksincha o‘rtahol dehqonlarning salmog‘i 17 foizdan 52 foizga ortdi.

O‘zbekistonda yer-suv islohotini o‘tkazish chog‘ida bir qator adolatsizliklar va nohaqliklarga yo‘l qo‘yildi. Birinchidan, quloq va boylar sifatida yo‘q qilib yuborilgan xo‘jaliklarning katta qismini o‘rtahol, o‘z mehnati bilan kun kechiruvchi dehqonlar tashkil etar edi. Ularning aksariyatiga sovetlarning o‘zi kecha yer taqsimlab berib, bugunga kelib ularni quloqlarga aylantirdi. Ikkinchidan, sovet va kompartiya idoralarida rahbarlik lavozimida o‘tirganlarning ko‘pchiligi nazariy-g‘oyaviy va siyosiy jihatdan pishib yetilmagan shaxslar edilar, ularning

²⁰Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –T.: Sharq. 2010. –B. 261.

ko'pchiligida xo'jalik-tashkilotchilik qobiliyati yo'q edi. Ana shuning oqibatida 20-yillarda davlatga kattagina foyda keltirib turgan shirkat xo'jaliklari yo'q qilib yuborildi, ularni kollektivlashtirish siqib chiqardi. 1924-yilda 912 shirkat 18 tuman uyushmasiga birlashgan edi.

Uchinchidan, sovet va kompartiya rahbarlari tub yerli xalqning ming-ming yillar davomida shakllanib, qaror topgan milliy urf-odatlar va qadriyatlari bilan hisoblashmadilar va nazar-pisand qilmadilar. Sovetlarning yer-suv islohotini qabul qilmaslik hollari ko'p joylarda qayd etilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish sobiq Ittifoqda bo'lgani singari 1927-yil, 2-19-dekabrida bo'lib o'tgan VKP(b) XV qurultoyidan so'ng rasmiy tus oldi. Ammo Oktabr Harbiy to'ntarishidan so'ng dastlabki jamoa xo'jaliklari vujudga kela boshlagan edi. 1921-yilning boshlarida faqat Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 8743 xo'jalikni birlashtirgan 275 jamoa xo'jaligi tuzilgan edi. Bu davrda ana shu viloyatlarda 74 ta davlat xo'jaliklari-sovxo'zlar ham tashkil topgan edi. yer-suv islohoti yillariga kelganda esa respublikadagi jamoa xo'jaliklarining soni 522 taga yetdi. Kollektivlashtirishni ommaviy ravishda sun'iy tezlashtirish 1929-yildan e'tiboran boshlandi.

Markazning «tanqidiy xulosalari» asosida O'zbekiston sovet hukumati va Kompartiyasi respublikada kollektivlashtirishni yuqori sur'atlarda va safarbarlik asosida olib bordi. Bu borada O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1930-yil 17-fevralda qabul qilgan «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qabul qilgan qarorini ta'kidlab o'tmoq joiz, albatta. Mazkur qarorda respublikada ommaviy suratda yalpi jamoalashtiriladigan 17 hudud belgilab chiqildi va kollektivlashtirishda kim o'zdi sotsialistik musobaqasi avj oldirildi. Bu hol sun'iy jamoa xo'jaliklarining tez sur'atlarda o'sishiga olib keldi. Agar 1930-yil, 1-yanvarigacha dehqon xo'jaliklarining 10 foizi jamoalashtirilgan bo'lsa, shu yilning 1-martiga kelib bu ko'rsatkich 44.8 foizga yetdi. Xorazm okrugining Shovot va G'azovot tumanlarida 1930-yilning yanvariga qadar birorta jamoa xo'jaligi bo'lmagani holda shu yilning 26-fevralida mazkur tumanlarning rahbarlari dehqon xo'jaliklari yuz foiz jamoalashtirildi, deb markazga xabar

berdilar. Kollektivlashtirishda ixtiyoriylikka amal qilinmadi. Hamma yerda qonun buzarlilik, zo'rlash, quloq qilish, soliq solish, surgun va qatag'on qilish siyosati avj olib ketdi. Bu tadbirlar VKP(b) MQsining 1930-yil, 20-fevralida qabul qilgan «Kollektivlashtirish va iqtisodiy jihatdan orqada qolgan milliy tumanlarda quloqlarga qarshi kurash to'g'risida»gi qaror asosida amalga oshirildi. Bu qaror asosan O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'iston singari milliy respublikalarda kollektivlashtirish bahonasida mahalliy xalqni qatag'on qilishni nazarda tutgan edi. Natijada faqat 1936-yilning o'zida O'zbekistonda 2648 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatilib, qatag'on qilindi.

Kollektivlashtirish jarayonining nuqsonlaridan yana bittasi shunda ediki, qishloq kooperatsiyasi artel shaklida amalga oshiriladi, deb yozib qo'yilgan 1930-yil, 6-fevralda qabul qilingan birinchi Namunali Nizomning o'zi da bir qator nuqson va qusurlar bor edi. Chunki unda mulkni umumlashtirish tabiati, jamoa xo'jaliklarining bo'inmas fondlari kabi masalalarga aniq javoblar berilmagan edi. Natijada uy-joy binolari, yirik shoxli mollar, qo'y-yechkilar u yoqda tursin, hatto parrandalar ham jamoalar mulkiga aylantirildi. Buni Farg'ona, Toshkent, Samarqand va boshqa viloyatlar misolida ta'kidlash o'rinlidir²¹.

Sovetlarning kollektivlashtirish siyosati ommani qo'rquv va vahimaga soldi. Ular o'z xo'jaliklarini qarovsiz tashlab qochdilar, chorva mollarini so'ydilar yoki bozorga olib borib arzon garovga sotdilar. Natijada O'zbekistonda faqat qoramollar 1930-yilning o'zida 60 ming boshga kamayib ketdi. Kollektivlashtirish davomida amalga oshirilgan bunday adolatsizlik, zo'rvonlik va odamlarning qadr-qimmatini oyoqosti qilish siyosati xalq ommasining sovetlar hukumatidan noroziligining mislsiz darajada kuchayishiga sabab bo'ldi va 1930-yil boshlarida O'zbekistonda dehqonlar urushining kelib chiqish xavfini tug'dirdi. 1930-yil, 25-fevralida Farg'ona okrugining bir qancha tumanlarida mehnatkashlarning ommaviy chiqishlari bo'lib o'tdi. So'ngra bunday harakatlar Andijon, Buxoro, Toshkent, Samarqand va Xorazm okruglarining bir qator tumanlarida ham takrorlandi.

²¹Alimova D. O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2002. –B. 141.

Xususan Farg‘ona vodiysi tumanlaridagi xalq ommasining chiqishlari sovetlar hokimiyatiga qarshi siyosiy kurashlar tusini oldi.

Xullas, jamolashtirishdan iborat sovetlarning mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qiluvchi tadbir O‘zbekiston uchun juda qimmatga tushgan edi. Bu ham yetmagandek markaziy hukumat O‘zbekistonga kollektivlashtirishni o‘tkazishda baynalmilalchilik yordamini ko‘rsatish bahonasida ko‘plab rus oilalarini bu yerga ko‘chirib olib keldi. O‘zbekistonga tashlangan birinchi yigirma besh ming desantchilar bu fikrimizga dalil bo‘la oladi. Yigirma besh mingchilar kimlar edilar, degan qonuniy savol tug‘iladi. Aslida ular sovet saltanatchilarining mamlakatimizda ruslashtirish va buyuk davlatchilikdan iborat siyosatini amalga oshirish uchun yuborilgan vakillarning bir qismi edi, xolos. Ammo sovet hukumati va kompartiya bu siyosatni xaspo‘shlab, sillig‘lab, shaharning qishloqqa, RSFSRning «qoloq milliy o‘lkalarga» do‘stona va otaliq «yordami» ko‘rsatishi niqobi ostida amalga oshirdi. Ishchilar harakatida yangicha otaliq yordamining g‘oyaviy negizi bo‘lib VKP(b) MQsining 1929-yil, noyabr Plenumi qarorlari asos bo‘ldi. Plenum qarorlariga ko‘ra qishloq mehnatkashlariga kollektivlashtirish ishida yordam berish uchun «tashkiliy-siyosiy jihatdan yetarli tajribaga ega» bo‘lgan 25 ming ishchi yuborilishi kerak edi. Chunki qishloqda sotsialistik dehqonchilikni maydonga keltiruvchi asosiy rahbar va yetakchi kuch ishchilardir, deb hisoblanar edi.

Xullas, 1930-yillarining oxirlariga kelib O‘zbekistonda sovetlar va kompartiya kollektivlashtirish nihoyasiga yetkazdi. Bu yo‘lning bosh maqsadi SSSR ning paxta mustaqilligini ta'minlashdan iborat edi. SSSR paxta mustaqilligi uchun kurash ixtisoslashtirish bahonasida O‘zbekistonda qaror toptirilgan paxta yakkahokimligining asosiy sababidir. Sovetlar hukumati va kompartiya O‘zbekistonda «SSSR paxta mustaqilligi uchun kurash-o‘zbek paxtakorlarining Vatan oldidagi baynalmilal va iftixor burchi!», «Oq oltin-mahalliy boyligimiz!» kabi shiorlar bilan butun kuch hamda vositalarni paxta yetishtirishni rivojlantirishga safarbar etdi, bu yo‘lda moddiy, texnik resurslarini ayamadi, mehnatkash ommaning tinka-madorini quritdi. O‘sha quloq qilinib Shimoliy

Kavkazga, Ukrainaga, Qozog'istonga surgun qilingan yurtdoshlarimiz bu begona yurtlarda paxta yetishtirish bilan mashg'ul bo'ldilar. Paxta mustaqilligiga erishishda ularning ham xizmati katta bo'lgan. Sovetlar hukumati asosiy diqqat-e'tiborini O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratar ekan, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, texnika vositalarini shu yerning o'zida ishlab chiqarish to'g'risida bosh qotirmadi. Chunki bu Rossiyaning milliy mustamlakachilik manfaatlariga javob bermas edi. Qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan traktorlar va boshqa mexanizmlar sobiq Ittifoq markazida barpo etilgan zavodlarda ishlab chiqarildi va O'zbekistonga keltirildi. O'zbekistonda eng katta sun'iy dengiz Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishi ham boshlab yuborildi. 1924-1928-yillarda davlat irrigatsiya ishlariga 61.4 million so'm kapital mablag' ajratdi. Natijada faqat 1937-1940 yillardagina O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydonlari 260 ming gektarga ko'paydi²². 1939-yilga kelib O'zbekiston davlatga 1 million 583 ming tonna paxta yetkazib berdi. Bu 1924-yilgi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda 673 foizga teng edi. Ammo inson hayoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni yetkazib beruvchi xalq xo'jaligining boshqa muhim sohalariga e'tibor mutlaqo pasayib ketdi. Jumladan donchilik, 78 foizga tushib qoldi, bog'dorchilik 1,5 baravarni, uzumchilik 1,6 baravarni tashkil etdi, xolos.

Shunday qilib, quloqlarni sinf sifatida tugatish asosida O'zbekistonda sovetlar tomonidan amalga oshirilgan kollektivlashtirishning natijalari nimalardan iborat bo'ldi? Birinchidan, tub yerli mahalliy aholining 80 foizdan ortig'i erkin mulkchilik va bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloqda yashar edi. Kollektivlashtirish siyosatining amalga oshirilishi natijasida erkin mulkchilikning va bozor iqtisodiyoti munosabatlarinig hamma va har qanday ko'rinishlariga abadiy barham berildi. Xususiyl mulkchilik batamom tugatildi. Uning o'rniga sotsialistik mulkchilik deb atalgan yangi mulkchilik shakli joriy etildi. U ikki ko'rinishda: davlat mulkchiligi xo'jaligi va jamoa mulkchiligi shaklida ro'yobga chiqarildi. Bu mulklar shakl-shamoyili, tashqi ko'rinish jihatidan bir-birlaridan farq qilsalarda, mohiyat-mazmun jihatidan bir xil edi. Aslida jamoa xo'jaligi ham

²²Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2001. –B. 101.

davlat mulki hisoblanardi. Ikkinchidan, kollektivlashtirish siyosatining qishloqda amalga oshirilishi natijasida sovetlar hukumati inson va fuqarolarning barcha huquq va erkinliklarini oyoqosti qildi va ularni bundan mahrum etdi. Davlat va jamoa xo'jaliklari (sovxoz va kolxoz)ga uyushgan qishloq fuqarolari O'z xususiy mulklaridan umuman mahrum bo'ldilar. Davlat va jamoa xo'jaliklari qadimgi quldorlik davlatlaridagi bamisoli qulchilik plantatsiyalarini eslatar edilar. Bu xo'jalikdagi fuqarolar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar. Og'ir va dahshatli mehnat eksplutatsiyasi xotin-qizlar va yosh bolalarni bir umrga mayib-majruh qildi²³.

Sovetlar hukmronligi davrida yozilgan tarixga oid manbalarda 20-30-yillarda O'zbekiston mehnatkashlarining moddiy ahvoli «tubdan yaxshilanib borgan»ligi balandparvoz, quruq va yolg'on raqam va ifodalarda yoritildi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki bor gapni, to'g'ri haqiqatni yozish man etilgan, bunga jur'at qilganlar esa xalq dushmani, antisovetchi sifatida jazolanar edi. Haqiqat esa sovetlar davridagi yozilgan manbalarga qaraganda mutlaqo boshqacha edi. O'zbekistonda xalq ommasining moddiy ahvoli o'sha kezlarda sobiq Ittifoq markaziga, Ukraina va Belorusiyaga nisbatan o'n karra yomonroq bo'lganki, beri bo'lmagan. «Buyuk burilish yili» deb e'lon qilingan 1929-yilning apreldan butun mamlakatda nonga kartochka tizimi joriy etildi, yil oxiriga borib barcha oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollariga kartochka tizimi joriy qilingan edi. 1931-yili qo'shimcha «order» joriy etilishi sababli kartochka bilan ham tegishli payokni olish mumkin bo'lmay qoldi. O'sha davrda ishchilarning ahvoriga baho berish uchun shu narsani ta'kidlash kerakki, GPU xodimlarining 1929-yilgi bergan maiumotlariga qaraganda ishchilarga bir kunda 600 gramm, oila a'zolariga esa 300 grammdan non berilgan. Ularga beriladigan bir oylik o'simlik moyi 200 grammdan bir litrgacha, 1 kg shakar olingan, har bir ishchi yilda 30-35 metr chit olgan. Narx-navo o'sib borishdan to'xtamas, ish haqi nomigagina oshirilar, mehnat normalari muttasil ortar edi. Ish suratini oshirish maqsadida zarbdorchilik harakatidan, sotsialistik musobaqadan foydalanildi. Rahbarlar uchun

²³O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. ... -B. 187.

maxsus magazinlar, oshxonalar paydo bo'ldi. Mamlakatda mollarga kamida 6 xil baho joriy etildi: kartochkalar bo'yicha beriladigan payok mollari bahosi, savdosotiq bahosi, o'rtacha yuqori baho, namunali magazinlar bahosi, faqat valuta yoki tilla sotiladigan tovarlar bahosi, bozor bahosi. Sanoat va xalq xo'jaligi xodimlarini zararkunandachilikda ayblash niqobida repressiyalarning keng tizimi ishga solindi. Bundan keyingi ahvol yanada yomonlashib borgan 1931-1933-yillarda mamlakatda yoppasiga ochlik hukm surdi. Birgina Ukrainaning o'zida 1932-yilda, 4 million odam ochlikdan oigan. Aslida bu davrdagi ocharchilik 1921-1922-yillardagi ocharchilikdan ham dahshatliroq edi. Ammo ocharchilik to'g'risida og'iz ochish kechirilmaydigan mudhish jinoyat hisoblanardi. Holbuki, 1921-yilda sovetlar hukumati ocharchilikka qarshi yordam so'rab, jahon jamoatchiligi, G'arb davlatlariga murojaat etdi²⁴.

Sovet Rossiyasining o'zida ahvol shu darajada og'ir kechgan bir paytda sovetlarni tan olmasdan unga qarshi qo'liga qurol olib, 30-yillarning o'rtalarigacha qon kechib kurash olib borgan O'zbekistondagi vaziyatni har qanday aqli raso kishi ko'z oldiga keltira oladi. Faqat masalaning chigal tomoni shundaki mamlakat tarixining haqiqiy manzarasini yoritib beradigan jarayonlar hali yetarlicha o'rganilmagan. Xalq ommasining bu davrdagi og'ir iqtisodiy ahvoliga oid hujjatlar ataylab sovet davlati organlari tomonidan yo'q qilib yuborilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Ammo bor bo'lgan ba'zi ma'lumotlarning o'zi ham sovet mustamlakachilarining sharmandali noinsoniy qiyofalarini ochish uchun yetarli asos bo'la oladi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha 30-yillarning oxiri va 40-yillarning boshlarida respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish 1924-1928-yillarga qaraganda 10-15 foizga kamaygan.

O'zbekistonda xalq ommasining iqtisodiy turmush sharoitining 20-30 yillardagi ahvoliga baho berishda Germaniyada yashayotgan vatandoshimiz Husayn Ikromning quyidagi so'zlari g'oyatda qimmatlidir: «...Bilasizki, 20 yillarning oxiri va 30-yillarning boshlari mamlakatda kooperativlashtirish, majburiy kollektivlashtirish harakati boshlandi. Buning oqibati o'laroq xususiy

²⁴ Shamsutdinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar. 3-kitob. Andijon. 2004. –B. 372.

mulkchilik bitirildi. Hamma narsa davlat mulkiga aylantirildi. Xususiy ishlab chiqarish tugatildi, kosib-hunarmandlar davlat uchun ishlaydigan bo'ldilar. Xususiy, ya'ni erkin savdo man etildi, savdo-sotiq hukumat idorasi va nazorati ostiga o'tdi. Raqobat o'ldi. Ma'lumki, raqobat bo'lmagan yerda yangilik yaratishga intilish ham, siyosat uchun kurashish ham bo'lmaydi. Majburiy rejalar, shartnomalar, majburiyatlar asosida ish yuritiladigan bo'ldi. Qisqasi, xususiy xo'jalik bitirilib, «xalq xo'jaligi» deb atalgan davlat tizimi o'rnatildi. Barcha soha va tarmoqlar markazdan-Moskvadan idora etiladigan bo'ldi. Mana shu usulda iqtisodiy taraqqiyot keng quloq yoyilmadi. U sirtmoqqa ilindi. Yuqorida qayd etganlarimizning dastlabki oqibati o'laroq mamlakatimizga, xalqimizning boshiga ocharchilik balosini keltirdilar. Millionlab yurtdoshlarimiz bo'lishdi, bu zaminda hatto it, mushuklar ko'rinmaydigan bo'lib qoldi...».

1930-yillarda O'zbekistonda vujudga keltirilgan ocharchilikning bosh sababchisi va aybdori sovet hukumati va kompartiyaning respublikada olib borgan shovinistik, mustamlakachilikdan iborat adolatsiz siyosati bo'ldi. Ana shu siyosatning tarkibiy qismi soliq siyosati edi. Respublikada amalga oshirilgan quloqlarai sinf sifatida tugatish asosida avj olib ketgan kollektivlashtirish yillarida adolatsiz va notekis soliq siyosati qoilanildi. Bunday siyosat oqibatida dehqonlarning turli xil ijtimoiy guruhlariga solingan soliqlar miqdori o'rtasidagi farq astronomik miqdorga yetgan edi. Jumladan har bir xonadonga hisoblaganda jamoa xo'jaligi a'zosiga nisbatan yakka xo'jalik xonadoni 10 marta, quloq xo'jaligi esa 140 marta ko'p miqdorda soliq to'lagan. Quloq xonadoniga tushadigan soliqlar 1929-1930-yillarga nisbatan 1931-yilda 2,2 baravar oshdi. Natijada mamlakat aholisining oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlari bilan muttasil ta'minlab kelgan qishloq mehnatchilarining katta qismi quloq sifatida tugatilgan bo'lsa, boshqa qismi quloq bo'lishdan saqlanib qolish uchun umuman xo'jalik ishlari bilan shug'ullanmay qo'ydi. O'zbekistonning milliy daromadi 1937-yilda aholi jon boshiga hisoblaganda 1932-yil darajasida qolaverdi. Aholining o'sish suratlari pasaydi, respublika aholisi asosan kelgindi millatlar hisobidan ko'paydi. 1926-1937-yillarda respublika aholisi 37 foiz o'sgan holda yevropa millatiga mansub

aholi 62 foizga oshdi. Oylik maoshlar yevropa millatiga mansub aholi mehnat qiladigan sanoat tarmoqlarida o'sdi, xolos. Bu misollar nafaqat qishloq hayotining qashshoqlashganligi, ayni paytda shahar aholisining ham moddiy nochorlashganligini ko'rsatadi. Oqibatda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda Sovetlarga qarshi ochiqdan ochiq qurolli chiqishlar bo'ldi. Markaziy hukumatning rasmiy ma'lumotlarida O'rta Osiyo hududida 1930-yil, mart oyining boshlarida 17400 kishi qatnashgan 45 ta chiqishlar sodir bo'lganligi qayd etilgan²⁵.

Xullas, 1917-yil, oktyabr harbiy to'ntarishi natijasida zo'rlik bilan o'rnatilgan tizim xalq ommasining nafaqat siyosiy haq-huquqlarini poymol qildi, balki iqtisodiy jihatdan butun boshli qashshoqlar jamiyatini vujudga keltirdi.

²⁵Alimova D. O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2002. –B. 150.

II-BOB. XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda madaniy hayot.

2.1. O‘zbekistonda maorif va fan rivojining asosiy yo‘nalishlari va muammolari.

Yosh avlodni o‘qitish, buning maorifni joriy qilish uchun shart-sharoitlar yaratish sa‘yi-harakatlari xalq ommasi, uning ilg‘or vakillari uchun dolzarb bo‘lib kelgan. Ma‘rifatparvar olim, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy (1878—1934) maktab masalasi, ya‘ni «tarbiya bizlar uchun yo_hayot mamot, yo najot, yo saodat-yo falokat masalasidir», deb ta‘kidladi. Bu jami o‘zbek ziyolilarining e‘tiqodi, qarashi bo‘ldi. Ular yangi maktablar ochish, o‘quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish, internatlar tuzib yetim bolalarni to‘plash, muallim, tarbiyachilarni tayyorlash ishlariga faol kirishib ketdilar. M. Behbudiy maslakdoshlariga «Maorifga yordam etingiz?.. Maorifni Buxoro tuprog‘iga joriy qilingizlar!», deb vasiyat qildi. 1919 yil baxorida uni amir jallodlari Karshida qatl qildilar. Xalq ta‘limining iste‘dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, Is‘hoqxon Ibrat, O. Dadaxo‘jaev, Abdulla Mustaqov, Hodi Fayziev, Ashurali Zohiriy, Sobirjon Rahimov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Said Rizo Alizoda, To‘xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo‘min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o‘sdi. 1918 yil boshida 330 taga, 1920 yilda Farg‘ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga yetdi. Tashkil bo‘lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarida asosan 1-2 boshlang‘ich sinflardan iborat edi²⁶. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo‘lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo‘qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solihaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulsum Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar dars-tarbiya ishlarini olib borganlar. Keng

²⁶Alimova D. O‘zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2002. –B. 166.

doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko'tardilar. 20-yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875—1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg'ona shahrida Husanxon Niyoziy boshchiligida ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi. Milliy jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917 yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917 yilda «Turkiy guliston yoxud axloq tarbiyaviy kitobini qayta nashr qildi, shuningdek, «Maktab gulistoni» o'qish kitobini, ikki jiddlik «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920 yildan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida_mudirlyk qildi. Shokirjon Rahimiy 1919 yilda birinchi alifbo «Sovg'a», 1922 yilda «O'zbek alifbosi» darsliklarini, boshqa o'quv qo'llanmalarini chiqardi. 1918 yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan. Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'lim-tarbiya maskanlari ochildi.

Aholining bolalarni o'qitishga, ilm-ma'rifatga ishtiyoqi kuchayib borgan, bunday talablar katta yig'inlarda yangragan. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida 20-yillar boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922 yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilindi. Buxoro Respublikasida 1921 yilda 10 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924 yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi. Ziyolilar, davlat arboblari gazeta, jurnallarning tarbiyaviy, ziyo tarqatuvchilik roliga jiddiy ahamiyat berdilar va sermazmun faoliyat ko'rsatdilar. 1918 yilda «Ishtirokiyun» 1922 yildan «Qizil bayroq», keyin «Turkiston» nomi bilan, «Mehnatkashlar o'qi», «Mehnatkashlar tovushi» (Samarqandda), «Fargona», «Yangi Farg'ona», «El bayrog'i», «Xalq», «Xalq qalqoni», «Yangi Sharq», «Erkinlik» nomli gazetalar,

«Maorif va o'qituvchi», «Moliya axboroti», «Kasabachilik harakati» jurnallari chiqarildi. Turkistonda o'zbek tilida 11 ta gazeta chiqardi. 20-yillarda ham bu jarayon davom etdi.

Yangi sharoitlarda o'zbek milliy matbuotchiligini rivojlantirishga ma'rifatchi darg'alar A. Avloniy, M. Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, A. Qodiriy, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, iste'dodli jurnalistlar G'ozi Yunusov, Elbek, Po'lat Soliev, Mannon Ramziy va qator boshqalar katta hissa qo'shdilar²⁷.

Gazeta va jurnallar rasmiy tashkilotlar organlari sifatida ta'sis etilgan va qattiq nazorat qilingan. Shunday bo'lsa-da, nashr qilingan materiallarda xalqparvar, adolatparvar ruh, g'oyalar ustuvor bo'lgan, ilgari surilgan. Sovet tashkilotlari siyosiy aqidalarga tayanib matbuotga ta'qibni kuchaytirdilar. Ayrim gazetalar 2-3 oy faoliyat ko'rsatib ulgurmasdan yopilib, man qilinar edi. Gazetalar nomlarini o'zgartirib chiqarardi. Sof vijdonli jurnalistlar ta'qib ostiga olindilar, keyinchalik qatag'on qilindilar. Yosh buxoroliklar 1919 yilda «Qutulish», 1920 yilda «Uchqun» gazetolari va «Tong» jurnalini chiqardilar. Jurnadda Fitrat, P. Soliev, A. Mustafoevning maqolalari e'lon qilingan. Respublika tuzilgach, «Buxoro axbori», «Ozod Buxoro» gazetolari ta'sis etildi. Buxoroda matbuotni tashkil qilishda Cho'lpon katta xizmat ko'rsatdilar. Xorazmda «Xorazm xabarlari», «Qizil yoshlar ovozi», «Maorif» matbuot nashrlari yo'lga qo'yildi. 1925 yil boshida O'zbekistonda o'zbek tilida 17 nomda gazeta va jurnallar chiqqan. Toshkentda 7 ta bosmaxona ishlab turgan. Kugu6xonalar, muzeylar soni ko'payib bordi. Toshkentning Eski Jo'va dahasida «Turon» kutubxonasi samarali faoliyat ko'rsatdi. Buxoro respublikasi hukumati maxsus komissiya ta'sis etdi, u nodir qo'lyozmalar, kitoblarni to'plash bilan shug'ullandi. 1921 yil dekabrda Minorai kalon yonidagi binoda davlat kutubxonasi tuzildi. Muzeylar tashkil qilishga kirishildi. 20 yillar o'rtasiga kelib Turkistonda 5 ta muzey bor edi. Ularda xalqimizning boy garixi aks etgan osori-atiqalar qo'yilgan. Shu bilan birga, shaharlarning yevropacha qismlari (Yangi shaharlar)dagi kutubxonalar, muzeylar,

²⁷ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –T.: Sharq. 2010. –B. 285.

boshqa tomosha joylaridan sovet hokimiyatining siyosiy maqsadlari uchun foydalanilgan, sinfiylik aqidalari targ'ib etilgan.

Tibbiyot masalalari jiddiy ahamiyat kasb etdi. Ocharchilik, moddiy qiyinchiliklar odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qator kasalliklar epidemiya tusiga kirdi. Buxoro shahrida ekologik muhit, ichimlik suvi muammosi, rishta, bezgak kasalliklari xavfli darajada edi. Turkistonga ko'plab kelgan och-chochoqlar yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ldilar. yerli aholi shaharlardagi kasalxona, poliklinikalarga kam murojaat qilgan. Shuning uchun eski shaharlarda, qishloq joylarida tibbiyot punktlari tashkil qilina boshlandi, vrachlar, hamshiralar sonini ko'paytirishga e'tibor qaratildi. Buxoro respublikasi hukumati bezgakni davolash uchun qishloqlarga dorilarni pulsiz tarqatish haqida qaror chiqardi. Berlindan klinika jihozlarini sotib oldi, ular 1923 yil avgustda Buxoroga yetib keldi. Natijada 1924 yilda respublikada tropik kasalliklar instituti, 5 ta kasalxona, 2 ta ambulatoriya faoliyat ko'rsatgan. Tashkil bo'layotgan maorif tizimi, boshqa sohalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918 yilda Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, tehnikumi ochildi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. yerli xalqlar vakillari ularga kam qatnagan. Toshkentning Eski shaharida, Kuqon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920 yildan 7 ta dorilmuallimin, bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925 yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3-4 marta o'sgan.

1924 yilda Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti Qori-Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi.

Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlarning o'qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922 yilda Turkiston. Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'kishga

jo'natildi. Buxoro Respublikasi hukumati Berlinda yotokxona uchun bino sotib oldi, o'quvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning ahvoli, o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

O'zbekistondan o'qishga boshqa yurtlar, shaharlarga ham yuborilar edi. Buxoro respublikasi rahbariyati Turkiyaga o'qishga buxorolik yoshlarni yuborib turdi. O'zbekiston ko'p asrlik san'at turlariga boy. Musiqa, ashula, xalq raqslari, turli-tuman asboblar, jumladan, mashhur karnay va nog'ora keng tarqalgan. Sharq san'atining shoh asari «Shashmaqom», qator klassik kuy va g'azallar shu zaminda yaratilgan. Keng xalq ommasi san'atni tushungan va ardoqlagan. Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Toshkentlik To'ychi Hofiz Toshmuhamedov, xorazmlik Matyoqub Xarratov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), buxorolik Domla Halim Ibodov, Farg'ona vodiysidan Madumar Hofiz, Shorahim Shoumarov, Mamatbuva Hofiz, Abduqodir Naychi (Ismoilov) va boshqalar o'zbek klassik qo'shiqchilik san'atini tarannum qildilar. San'at truppalari, milliy teatrlar tuzildi va faoliyat ko'rsatdi.

Yangi san'at turlari doirasi kengaydi. M. Behbudiy, A. Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hoji Muinlar asos solgan o'zbek dramaturgiyasini Fitrat, Xurshid (Shamsiddin Sharofiddinov, 1890-1960), G'ulom Zafariy va boshqalar davom ettirdilar. Fitrat 1920 yilda «Chin sevis» pesasini yozdi, keyinchalik «Hind ixtilolchilari», «Abulfayzxon», «Shaytonning tangriga isyoni» dramalarini yaratdi. Xurshid 1918-1924 yillarda muallimlik qilish bilan birga «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» hamda boshqa dramalarini yozdi, ularda aytilgan «Girya», «Chorgoh», «Segoh», «Ushshoq», «Bayot», «Suvora», «Dugoh» qo'shiqlari o'zbek klassik qo'shiqlariga aylandi²⁸.

Milliy sahna san'ati sohasida yetuk aktyor va rejissyor Mannon Uyg'ur (1897—1955), teatr tanqidchisi g'arb pesalari tarjimoni Cho'lpon fidoyilik ko'rsatdilar. Sovet hokimiyati buning moddiy asoslarini, jumladan, vaqf mulklari,

²⁸ O'zbekistonning yangi tarixi... –B. 389.

daromadlarini o'zlashtirishga harakat qildi, ma'rifatparvar mulkdorlarning sa'y-harakatlari davom etishiga yo'l qo'ymadi. Munofiqdik bilan inqilobiy kampaniyalar o'tkazildi, shiorlar tashviqot qilindi. Madrasalar yopildi, an'anaviy maktablarga dushmanlik tazyiqi o'tkazildi.

Ko'pchilik milliy kadrlar, ziyolilar, jamoatchilik jiddiy qarshilik ko'rsatdilar. Vaqflarni yo'q qilmay, islohot o'tkazish, ulardan kelgan daromadlarni maktab-ma'rifat uchun ishlatish yo'liga o'tildi. Maorif idoralarida vaqf boshqarmalari tashkil etildi. 1922 yilda Xorazm respublikasida 328 ming tanob vaqf ekin yerlari bo'lgan. Buxoro respublikasida 1924 yil boshlarida vaqf boshqarmasiga 248 ming tanob yer, 1500 ga yaqin do'konlar va saroylar, 200 ga yaqin uylar, bozorlar, hammomlar, tegirmonlar qaragan. O'zbekistonda 1924-1925 yillarda vaqf mablag'lari bilan 150 taga yaqin maktablar, internatlar va boshqa ta'lim-tarbiya muassasalari ta'minlangan.

O'zbekiston hududida 1917-1924 yillarda maorif, madaniyat va ma'naviyatda murakkab jarayonlar kechishi bilan bir qatorda, xalq ommasi maktab, ma'rifat va o'z milliy an'analari uchun qattiq kurash olib bordi.

20-30-yillardagi juda murakkab ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgartirishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi. Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish haddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgadikda davom etib bordi. Shunday bo'lsa-da, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rinadi. Bundan tashqari oktyabr to'ntarishidan avval katta madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilida olib boriladigan I (besh yillik ta'lim) va II (to'rt yillik ta'lim) bosqich maktablarni ochish va ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif

institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

1924-25 o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928/29 o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingga yetdi.

Shu bilan bir vaktida katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kampaniya avj oldirildi. 1921/22 o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmokdari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida katta qiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jihozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari yetishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsa-da, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, T. Shermuhamedov, T. N. Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, G'ozzi Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P. Qayumov, K. Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar²⁹.

Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda, tezkorlik bilan tayyorlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g'oyalarni asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi.

²⁹ Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. –B. 111.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmog'i yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. 20-yillarning oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 mingtaga yetib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi. Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy imkoniyatlari yuksali-shiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon katta g'ov bo'lib turgan muammo aholining savodliligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930_yili umumiy boshlang'ich ta'limning joriy etilishi savodsizlik kulamlarini qisqartirildi. Ajratilgan katta mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi.

Afsuski, xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai-nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqsor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. 20-yillarning ikkinchi yarmida o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyilga amal qilib, bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o'quv yutlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmog'i yaratildi. Shu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliy o'quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o'qir edi. Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O'zbekistonga yordam berdilar. 1927 yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekistondan kelgan 300 ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

O'rta Osiyodagi birinchi oliy o'quv yurti-1918 yili ochilgan Turkiston davlat universiteti-bo' vaqtga kelib oliy ta'limning eng yirik markaziga aylandi.

Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqqan kishilar soni 1928 yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozlar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo'lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar yetishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik, transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933 yili Samarkandda O'zbekiston davlat uni-versiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi, 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o'qiydigan 30 ta oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko'paydi. Bu yangi mutaxassislar xalqxo'jaligi safiga kelib qo'shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosan ularning soni ko'paytirildi, sifatiga esa e'tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o'zbek professor-o'qituvchilari va o'zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi. 20-yillarda respublikada dastlabki ilmiy-tadqiqot muassasalari ochildi. Ular respublika uchun amaliy jihatdan muhim bo'lgan muammolarni, ayniqsa, irrigatsiya, paxtachilik va tibbiyot sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan ishlab chiqishni avj oldirdilar. 20-yillarning oxirlariga kelib O'zbekistonda endi o'nlarcha ilmiy-tadqiqot muassasalari ishlar, ularda 1000 dan ortiq ilmiy xodimlar mehnat qilar edi.

30-yillar ilm-fanning qaror topishida jiddiy yutuqlar qo'lga kiritilgani bilan nishonlandi. Xalq xo'jaligida kattagina ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni nazariy va amaliy yo'l bilan hal etish ustida samarali mehnat qilgan dastlabki milliy oliy mutaxassis, iste'dodli tadqiqotchilar yetishib chiqdi, keyinroq ulardan yirik olimlar pleyadasi shakllandi. Masalan, geolog olimlardan H.M. Abdullaev, G'.A. Mavlonov, N.A. Kenesarin, matematiklardan T.N. Qori Niyoziy, T.A.

Sarimsoqov, fiziklardan U.O. Oripov, biologlardan T.3. Zohidov, D.K. Saidov, A.M. Muzaffarov, A.T. To‘laganov, kimyogarlardan O.S. Sodiqov, A.S. Sattorov, S.Yu. Yunusov, X.U. Usmonov, K.S. Ahmedov, energetiklardan H.F. Fozilov, G.R. Rahimov, faylasuflardan I.M. Mo‘minov, arxeolog Ya.G‘. G‘ulomov, tarixchi P. Soliev va boshqa ko‘pgina olimlar yangi ilmiy yo‘nalishlar hamda ilmiy maktablarning asoschilari bo‘lib qoldilar³⁰.

Ilmiy ishlarni uyg‘unlashtirib tartibga solib borish uchun O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti qoshida 1932 yili Fanlar komiteti tuzildi. Bu komitet 1940 yili SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filialiga aylantirildi. 1941 yili respublikada 75 ta ilmiy muassasa bo‘lib, ularda uch ming nafardan ortiq ilmiy xodimlar mehnat qilar edi. Ilm-fanning xalq xo‘jaligi taraqqiyotiga qo‘shayotgan ulushi tobora ko‘proq sezilib bordi. Bir tomondan, respublikaning ilmiy salohiyati o‘sib, ilmiy kadrlar muammosi hal etilib bordi, ikkinchi tomondan esa fanning ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan boshqarilishi, ko‘pgina ko‘zga ko‘ringan olimlarimizning qamalishi, qatag‘on qili-nishi ilmiy ijodkorlik tuyg‘usini bo‘g‘ishga xizmat qildi, fanimizning umumdunyoviy sivilizatsion yo‘l bilan rivojlanishiga yo‘l qo‘ymadi. Natijada fan o‘z an'anaviy milliy ildizlaridan ajratildi, u borgan sari siyosiylashib, mafkuraviylashib bordi.

2.2. Milliy adabiyot va san'atning rivojlanishidagi ziddiyatlar.

Ijtimoiy hayotda shiddatli ziddiyatlar hukm surgan bu murakkab davrda adabiyot san'at va milliylik, insonparvarlik, xalqchillik kabi tamoyillarga sodiqligini saqlab qoldi. Bu davr respublika ijodiy hayoti uchun izlanishlar, o‘zlarining dunyoqarashlari jihatidan bir-birlaridan farq qiluvchi talaygina yo‘nalishlarning g‘oyat qattiq to‘qnashuvlari bilan to‘lib-toshgan davr, yutuqlar qo‘lga kiritilgan va talafotlar berilgan, yangi-yangi iste'dodlar dunyoga kelgan va fojea bilan tugagan taqdirlar davri bo‘ldi. Bu davr respublika ijodiy hayoti uchun izlanishlar, o‘zlarining dunyoqarashlari jihatidan bir-birlaridan farq qiluvchi talaygina yo‘nalishlarning g‘oyat qattiq to‘qnashuvlari bilan to‘lib-toshgan davr, yutuqlar qo‘lga kiritilgan va talafotlar berilgan, yangi-yangi iste'dodlar dunyoga

³⁰ Alimova D. Ko‘rsatilgan asar. –B. 170.

kelgan va fojea bilan tugagan taqdirlar davri bo'ldi. Bir tomondan, bu davrda 20-yillarning boshlarida Abdurauf Fitrat boshchiligida Toshkentda tuzilgan «Chig'atoy gurungi» uyushmasi yangi o'zbek milliy adabiyoti, tili va madaniyatini yaratish, adabiy-madaniy merosini to'plash va urganish, talantlarga har tomonlama ko'mak berishga harakat qildi. Ular milliy istiklol ruhidagi asarlarni nashr etish, tashviq va targ'ib qilishni yo'lga qo'ya boshladilar. O'zbek yozuvchi va shoirlari Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, G'ulom Zafariy va boshqalar o'z asarlari bilan milliy qadriyatlarni yoqlash va himoya qilishga urindilar. Ularning muxoliflari, ayniqsa, yosh adabiyotchilar orasidan chiqqan ayrim yozuvchilar madaniy jarayonlarda faqat sinfiy yondashuvigina birinchi o'rinda turishi mumkin, deb da'vo kildilar. Bolsheviklar partiyasi mafkurasi ta'sirida yaratilgan bu «sof» sinfiy dunyoqarash tarafdorlari Sharq madaniy merosidan foydalanish uchun kurashishga jur'at etgan ijodkorlarning hammasini Sharq oldida sajda qiluvchilar deb tanqid qila boshladilar. Shunday bo'lsa-da, keksa va yosh avlodning badiiy iste'dodlari 20-yillarda o'zbek milliy adabiyotini g'oyaviy-badiiy jihatdan boyitgan talaygina asarlarni yaratdilar. Abdulla Qodiriy, Fitrat, G'ulom Zafariy, Hamza, Cho'lpon va boshqalar o'zbek xalkining tarixiy o'tmishi, ozodlik uchun kurashini, ayollar erkinligini, ijtimoiy o'zgarishlarni mahorat bilan yoritgan bir qancha nazariy, she'riy va dramatik asarlar yaratdilar.

O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy Turkistonning so'nggi xonlaridan Qo'qon xoni Xudoyor-xon davridagi turli tabaqa vakillarining hayoti, intilishlari va axloqini realistik tarzda tasvirlagan «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» kabi ajoyib badiiy-nasriy asarlarni ijod qildi. Har ikki tarixiy romanda qalamga olingan bosh ijobiy qahramonlar-Otabek, Yusufbek Hoji, Kumush, Mirzo Anvar, Ra'no va boshqalar yozuvchining haqiqiy ishq-muhabbat, adolat uchun kurash haqidagi ideallarining yorqin ifodasidir. Hamzaning «Maysaraning ishi» nomli komediyasida esa eski davrdagi ayrim amaldorlar, qozilarning nopok axloqi, kulgili xatti-harakatlari xalq donishmandligining asosi bo'lgan folklor motivlari asosida keskin fosh qilinadi. Xalqning og'ir ahvoli va fojeasi Fitratning «Abulfayzxon» asarida zur badiiy maxorat va shekspirona ko'lamda tasvirlanadi.

Gʻulom Zafariining «Halima», Choʻlponning «Yorkinoy» va boshqa dramalarida oʻzbek xalqi tarixiy oʻgʻmishining boshqa muhim ijtimoiy masalalari, jumladan, xotin-qizlarni qullik psixologiyasidan ozod qilish masalalari oʻrtaga tashlanadi.

20-yillarning oxirlari va 30-yillarning boshlariga kelib mustabid tizimning qaror topib borishi, shaxsga sigʻinishning kuchayishiga qaramay ijodiy hayot toʻxtab qolmadi. Yozuvchi va adiblarning saflari tobora kengayib bordi. Bu davr adabiyot maydoniga Gʻafur Gʻulom, Oybek, Gʻayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Uygʻun, Komil Yashin, Usmon Nosir, Amin Umariy, Zulfiya kabi bir qancha yosh talantli shoir va noeiralar, dramaturglar qoʻshildilar. Yilning mart oyida Toshkentda Oʻzbekiston yozuvchilari qurultoyi boʻlib oʻtdi, unda respublika yozuvchilari uyushmasi tuzildi³¹.

Oʻzbek adabietining mavzu doirasi birmuncha oʻzgardi. Sotsialistik gʻoyalar, sinfiy kurash haqidagi tushunchalarning targʻib qilinishi va ularning ijtimoiy hayotda hukmron boʻlib borishi bu davrdagi oʻzbek adabiyotining gʻoyaviy-tematik yoʻnalishiga taʼsir etmay qolmadi. Mehnat, sinfiy kurash, kollektivlashtirish mavzulari birinchi oʻringa chiqib boshladi. Shunga qaramay, Oybekning «Qutlugʻ qon» romani, «Baxtiyor va Sogʻindiq», «Temirchi Joʻra», «Dilbar davr qizi» dostonlarida, Gʻ. Gʻulomning «Koʻkan» dostoni, A. Qodiriyning «Obid ketmon» povesti kabi davrning muhim muammolarini tasvirlovchi badiiy jihatdan baquvvat asarlar yaratildi.

30-yillarda sinfiy kurash va xotin-qizlar ozodligi mavzularida Komil Yashinning «Oʻrtoqlar», «Nomus va Muhabbat, Tor-mor», N. Zafarovning «Uygʻonish» pesalari K. Yashinning «Gulsara», «Boʻron» opera librettolari va boshqa asarlar maydonga keldi.

Xalqning yuksak insonparvar va axloqiy xususiyatlarini, mehmondoʻstligi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, shijoatini madh etuvchi xalq shoirlari Fozil shoir, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli va boshqalarning dostonlari asosan shu davrda keng xalq ommasiga yetkazildi. Bu yillarda ayniqsa, jahon klassikasining mashhur asarlari boʻlgan U. Shekspirning «Hamlet», A. S. Pushkinning «Boris

³¹ Alimova D. Koʻrsatilgan asar. –B. 174.

Godunov» nomli tarixiy asarlari, «evgeniy Onegin», «Boqchasaroy favvorasi» kabi dostonlari, I. S. Turgenevning «Asya» va «Bahor suvlari» povestlari, N. V. Gogol va A. P. Chexovning hikoya va povestlari, A. Blokning she'rlari, F. Dostoevskiy, L. N. Tolstoy romanlari mahorat bilan tarjima qilindi. Ularni o'zbek tiliga Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Sanjar Siddiq, Oybek, Abdulla Qahqor, Usmon Nosir, Hamid Olimjon va boshqalar mahorat bilan tarjima qildilar. Klassik asarlarning tarjimalari o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirishda va ma'naviy boyligini kengaytirishda muhim rol o'ynadi. O'zbek milliy dramaturgiyasi va musiqasi, teatr va kino, tasviriy va amaliy san'ati ham xalqimiz ma'naviy madaniyatining hayotbaxsh manbai bo'lib qoldi va unga xizmat qildi.

Musiqqa, teatr va kino san'atining iste'dodli milliy kadrlari yetishib chiqdi. O'zbek milliy musiqasini rivojlantirishda o'zbek kompozitorlaridan To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burhonovlar ko'p mehnat qildilar. Ajoyib rejissyorlar va aktyorlar Mannon Uygur, Ma'suma Qorieva, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'raeva, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Mariya Kuznetsova, Razzoq Hamroev, Sh. Qayumov, T. Saidazimova va boshqalar tufayli o'zbek teatr san'ati gullab-yashnadi. Vokal va raqs san'atida Halima Nosirova, Karim Zokirov, Muhiddin Qori Yoqubov, Boborahim Mirzaev, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Mu-karrama Turg'unboeva va boshqalar yuksak mahoratga erishdilar. O'zbek musiqqa va vokal madaniyatining rivojlanishida 1936 yili Toshkentda ochilgan davlat konservatoriyasi muhim rol o'ynadi. O'zbek kino san'ati ham faollik bilan shakllanib bordi. Uning iste'dodli boshlovchilari Nabi G'aniev, Yo'ldosh A'zamov, S. Iskandarov, A. Umarov, Komil Yormatov, Rahim Pirmuhamedov va boshqalar Moskva va Leningrad kinematografchilari bilan birgalikda o'zbek kinostudiyasida «Rovot qashqirlari», «Musulmon ayol», «Qasam», «Asal» degan dastlabki badiiy filmlarni yaratdilar.

Respublikaning madaniy hayotida tasviriy va amaliy san'at tobora ko'proq sezilarli rol o'ynay boshladi. 1932 yili O'zbekiston rassomlari uyushmasi tuzildi. Iste'dodli o'zbek rassomlari U. Tansiqoiev («Ozod etilgan ayol»), T. Hamdamiy («To'qimachilik fabrikasi qurilishida»), D. Abdullaev («Paxta terimi») ajoyib

polotno-suratlarini yaratdilar. Xalq amaliy va bezatish san'ati yangi mazmun bilan boyidi. Naqqoshlik, metall zarblash, yog'och va ganch o'ymakorligining ajoyib namunalari, badiiy zardo'zlik va ipakdo'zlik buyumlari yaratildi³².

Biroq 30-yillarda tobora kuchliroq qaror topib borayotgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma'naviy hayotini qattiq iskanjaga oldi. Ijodiyotni partiyaviylik tamoyillariga, mafkuraviy qonun-qoidalarga bo'ysundirish dunyoni badiiy tasvirlashni qo'pol ravishda siyosatlashtirish uchun keng yo'l ochib berdi, dunyoni bilish imkoniyatlarini toraytirib qo'ydi. Partiyaning yangi turmushni madh etishga qilgan da'vati xalq o'tmishiga salbiy munosabat paydo bo'lishiga, badiiy jarayondagi tarixiy izchillikning unutilishiga olib keldi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut sakdash holatlari kuchaya boshladi. Hayotiy haqiqatlar buzib ko'rsatildi, san'atning haqiqiy tarbiyaviy kuchi zaiflashdigan mazkur xalq farzandlarining asarlari faqat shaxsga sig'inish oqibatlarini tutatila boshlangan davr 50-yillar oxirlaridan keyingina xalqqa asta-sekin qaytarildi.

20-30-yillar ateistik harakatning kuchayishi bilan ta'riflanadi. Partiya organlari ayniqsa yoshlar orasida dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib bordilar. Ateizmga doir maxsus gazeta va jurnallar (1928 yilda «Xudosizlar» nomli jurnal), har xil ommaviy adabiyotlar nashr qilindi, kino-filmlar olindi, dinga qarshi mavzudagi har xil spektakllar qo'yildi. «Xudosizlar uyushmasi» tuzildi, uning joylardagi ko'pdan-ko'p tashkilotlari zo'r berib ateistik ish olib bordi. Bu siyosat fuqarolarning din erkinligi huquqiga qilingan oshkora tajovuz bo'lib, u« shu yillarda faqat ruhoniylar orasidagina emas, xalq orasida ham norozilik tug'dirib, odamlarni esankiratib qo'idi. Bu davrda musulmon ruhoniylarining roli kamsitilib, yo'qqa chiqarib qo'yildi, lekin shunday shafqatsizlikka qaramay, mahalliy aholining an'anaviy turmushida islom dini asosan saqlanib qoldi. Biroq u sharoit va qonun-qoidalarga muvofiq tarzda tartibga solib borildi.

³²Usmonov Q. Ko'rsatilgan asar. –B. 118.

Dinni, ruhoniylar va dindorlarni siyosiy va jismonan ta'qib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada katta zavol yetkazdi. Ijtimoiy hayotda ma'muriy-buyruqbozlik tartiboti o'rnatilishi bilan dinga ilmiy nuqtai nazar inkor etila boshlandi. Din bilan ateizmning dunyoqarash jihatidan bir-biriga qarama-qarshiligi siyosiy qarama-qarshilik bilan almashtirildi. «Sotsializmda dinga o'rin yo'q, unga din begona», degan fanatik qarash, qoida ustun bo'lib qoldi. Shunday qilib dinga nisbatan salbiy munosabat dinga qarshi zo'rlik ko'rsatishga aylanib ketdi. Musulmon masjidleri ham, rus cherkovleri ham, ularga ixlos qo'ygan barcha dindorlar ham bu davrda o'z tarixla-rida kechirmagan og'ir ta'qib va tazyiqlarni boshdan kechirdilar. Buning fojeali oqibatida O'zbekiston ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda qatag'on qilindi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi faqat diniy emas, madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazleri bo'lganiga qaramay bekitib qo'yildi.

Biroq shaxsga sig'inish yillarida va undan keyingi ko'pgina yillarda ateizmni zo'rlab tiqishtirish va islomga qarshi zo'rlik o'tkazish dinning yo'q bo'lishiga olib kelmadi. Dindorlar masjid va ruhoniylardan mahrum etilgan bo'lsalar ham toat-ibodatlerini yashirincha davom ettiraverdilar. Masjid, madrasalarning yopilishi, ruhoniylarning qatag'on qilinishi aholi orasida umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni targ'ib qilish, qaror toptirish ishiga katta ziyon yetkazdi. Yosh avlod islom dini qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan mahrum bo'ldi.

Bu davr respublikaning madaniy hayoti ijobiy o'zgarishlar bilan: savodxonlikning ortishi, aholi umumiy saviyasining yuksalishi, xalq o'z-o'zini anglashining o'sib borishi bilan ham e'tiborli bo'ldi. Biroq 20-yillarning ikkinchi yarmidayoq mamlakat hayotida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tarkib topa boshladiki, u respublika ijtimoiy-madaniy sohalarining yangidan barpo bo'lishini sekinlashtirib qo'ydi. E'lon qilingan sotsialistik insonparvarlik, adolat haqidagi g'oyalar bilan haqiqiy voqyelik o'rtasida ro'y-rost ziddiyatlar paydo bo'lib qoldi. Ular milliy ma'naviy hayotning asl mohiyatini noto'g'ri tushunish, uni ruslashtirish

va ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish bilan ifodalandi, bu narsa ayniqsa qatag'onlik xatti-harakatlarining ta'siri ostida yanada kuchayib bordi.

2.3. O'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolari.

Xotin-qizlar masalasi bashariat tarixidagi uziga xos, murakkab hodisalardan. Bu muammo ayniqsa, ming-minglab musulmonlar qismati keskin hal etilgan katta ijtimoiy o'zgarishlar davrida O'zbekiston xalqdari o'tmishida o'chmas iz qoldirdi. O'zbekiston xotin-qizlarining hayoti asrlar osha musulmonchilik qonuniyatlari va an'analari asosiga qurilgan edi. Shu bois sovet hukumati o'rnatilgach, qisqa vaqt ichida ularni yemirib tashlab, mutlaqo yangi an'analarni va unga muvofiq ravishda xotin-qizlarning yaralishi haqidagi qotib qolgan tushunchalardan butunlay xoli bo'lgan erkaklar avlodini yaratish mumkin emasdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, haqli bir savol tug'ilishi tabiiy: O'zbekistonda «Hujum» harakatini boshlash, eski turmushga hujum qilish, ya'ni o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish zarurmidi? Ha, zarur edi, biroq bolsheviklar tanlagan tezkorlik yo'li bilan emas, asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak edi. Ma'lumki, oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi, balog'atga yetmagan qizlarni erga bermaslik masalalari bo'yicha bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. 20-yillarda tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari bu jabhada umuman olganda to'g'ri ishlarni amalga oshirdilar: har bir xonadonga kirib tushuntirish ishlari olib bordilar, maxsus xotin-kizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar, bu yerlarda xotin-kizlar hiech qanday qarshiliksiz tikish, savdo-sotiq, o'qish-yozishni o'rganish bilan shug'ullandilar. Barcha tadbirlar o'zbek xotin-qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an'analarga mutanosib holda olib borildi. O'sha paytlarda hiech kim paranji tashlash hakida so'z yuritmas edi. Faollar ko'proq ishontirish usuliga tayanishardi. Shunga ko'ra, xotin-kizlar hukuqini ta'minlash, ularni yaratuvchilik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Ayollar mehnati oila byudjetiga munosib hissa qo'shgani, fuqarolarga qo'l kelgani ma'lum³³.

³³ O'zbekistonning yangi tarixi... –B. 376.

Taajjublanarlisi shundaki, totalitar rejim bu boradagi ishlar sekin-asta borayotganidan qoniqmasdi. Uni sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida 1927 yil bahorida «Hujum» kampaniyasi boshlab yuborildi va unga zarbdor safarbarlik xususiyati ko'ridi. Bu jarayonda bolsheviklar ruhiy omillarni, islom omilini mutlaqo hisobga olmadi. Holbuki, xotin-qizlarning paranjisiz yurishiga ijtimoiy muhit to'g'ri kelmasdi, bunga na partiya, sovet xodimlari, na oddiy odamlar tayyor edilar. Xujum kompaniyasi jarayonida bolsheviklar zo'rvonlik ma'muriy yo'l bilan yuz ming ayolning paranjisini tashlattirdi. Lekin partiyaning o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishni tezlashtirish siyosati yomon oqibatlariga olib keldi. «Hujum»ga qarshi bo'lganlar ayollarga nisbatan zulm o'tkaza boshladilar. 1927-1928 yillarda O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, tuman, qishloq kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari, kutubxonalar mudirlari, o'qituvchilar hayotdan judo bo'lganlar. Ayollarni erksizlikdan qutqarishda, erkinlikka chiqarishda bunday dahshatli fojealar bo'lmasligi ham mumkin edi. Buning uchun ularga avvalo zarur shart-sharoitlar yaratib, bularni esa bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak edi.

Dastlab xotin-qizlar hunarmandchilik kooperatsiyasiga jalb qilindi. Xotin-qizlar klublarida ich kiyim, ko'rpa-to'shak, do'ppi to'qiydigan xona ishxonalar ochildi. Keyinchalik hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida maxsus ayollar artellari tashkil qilindi. 1926 yilda respublikada 16 ta yirik ayollar artellari bo'lib, ularda 814 nafar mahalliy millat vakillari mehnat qilardi.

30-yillar boshidan boshlab ayollar mehnatiga munosabat o'zgardi. Sanoatlashtirishni jadallashtirish, sotsialistik muvaffaqiyatlar ortidan quvish ayollar masalasida ham o'z asoratini qoldirdi. Ayollar erkaklar bilan teng huquqli degan qoida noto'g'ri talqin qilinib, xotin-qizlar mehnatda ham erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi kerak, deb talab qilindi. Ayollar masalasi hal etildi deb tushunildi. Hattoki partiyaning qurultoylarida «Hozirgi paytda xotin-qizlar shu qadar o'sib ketganki, ularning o'ziga xos jihatlari haqida gapirish o'rinsiz», deb ko'rsatildi. 1930 yilda xotin-qizlar masalalari, muammolari bilan shug'ullanadigan xotin-qizlar bo'limlari faoliyati to'xtatildi.

Ayollar jismoniy kuch talab qiladigan og‘ir sanoat korxonalarida chilangar, slesar, shofyor bo‘lib ishla-dilar, kurilishda mehnat qildilar. 1931 yilda «Tashselmash» zavodida 345 ayol, Toshkent temir yo‘lining «Birinci may» ustaxonasida 80 nafar ayol ishlagan. 1940 yilga kelib respublika sanoatidagi ishchilarning 41 foizini xotin-qizlar tashkil etardi.

O‘zbek xotin-qizlari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga ham keng jalb qilindi. Ayollar kolxozlarga a‘zo bo‘ldilar, pillachilik, bog‘dorchilik, parrandachilik, yeut xo‘jaligi kabi kyshloq xo‘jaligining yordamchi tarmokdarida mehnat qildilar. Respublikada ipakchilik keng rivojlangan edi. 1928 yidda Toshkent okrugida pillachilik artellariga 560 dehqon xo‘jaliklari birlashgandi. 1930 yilda respublikaning ipakchilik kooperatsiyasi shirkatlarida 13 mingga yaqin ayollar ishlardilar.

1925—1928 yillarda ayollar kolxozlari tashkil qilindi. Ularda 5,5 mingdan ko‘proq xotin-qizlar mehnat qildi. Lekin bu artellar amalda o‘zini oqlamadi. Xo‘jalikdagi og‘ir ishlarni bajarish uchun erkaklar yordami kerak bo‘ldi. Shundan so‘ng ayollar kolxozlarda erkaklar bilan birga ishlay boshladilar. 1931 yilda respublikada 50 foiz xotin-qizlar kolxozlarga a‘zo bo‘lib kirgan edilar.

30-yillarda o‘zbek ayollarini ularga mos bo‘lmagan kasb-traktorchiikka o‘rgatish avjga chikdi. Faqat 1939 yilda 2500 xotin-qizlar traktorchilar kursida o‘qishga majburan jalb qilindi. Ularning ko‘plari o‘qishni bitirib bu kasb bo‘yicha ishlamasdi. Farg‘ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida kurslarni bitirgan 2 mingdan ortiq ayollardan faqat 714 nafari traktorchi bo‘lib ishlagan³⁴.

Shunday qilib, o‘zbek xotin-qizlarining ishlab chiqarishga jalb etilishi ularni ozodlikka chiqarishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga partiya organlarining ma'muriy-buyruqbozlik usuli, sanoatlashtirishni, kollektivlashtirishni jadallashtirish siyosati ishlab chiqarishda ayollar mehnatini tashkil qilishda qator muammolarni keltirib chiqardi.

O‘zbek ayollarini jamiyatning teng huquqli a‘zolarig‘a aylantirishda, erksizlikdan qutqarishda ularni madaniy va ijtimoiy hayotga jalb qilish muhim

³⁴ Shamsutdinov R Ko‘rsatilgan asar. –B. 393.

ahamiyat kasb etdi. Madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib borishda ayollar klublari katta rol o'ynadi. Bu klublarda ayollarga vrachlar maslahatlar berardi, bolalar meditsina ko'rigidan o'tkazilardi. Tikuvchilik va boshqa hunarmandchilik artellari tashkil qilinib, ayollarga moyana olish imkoniyati tug'dirildi. Shuningdek, kutubxona, yaslilar ochildi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazilib turildi. Klublar o'zbek xotin-qizlarining madaniy saviyasini orttirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1927 yilda Andijondagi Eski shahar ayollar klubida 134 a'zo bo'lgan. 30-yillar oxirida respublikada 42 ta shunday klublar faoliyat ko'rsatgan.

20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926 yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928 yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929 yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932 yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

Xotin-qizlar faoliyatini oshirishda ayollar majlislari, oilaviy yig'inlar, ayol delegatlari majlislari qo'l keldi. Delegatlarga xotin-qizlar bo'limlar maxsus yo'llanma berib, davlat kooperativ va boshqa tashkilotlariga jamoatchilik asosida ishga yuborgan. Ular mahallalarda ayollar orasida tushuntirish ishlari olib borganlar, mahallalardagi majlislarda kelin olganda qalin berish, balog'atga yetmagan qizlarni erga berish, ko'p xotinlik davlat qonunlari bilan man etilganligini tushuntirganlar. Delegatlar tashkilotlarda, idoralarda ishlab, amaliy ish tajribasini o'zlashtirganlar. Tajribaga ega bo'lgan delegatlar ma'muriy, xo'jalik, jamoat ishlariga jalb qilingan.

Kishloq joylarda ayollarning «Ko‘shchi» uyushmasiga, kooperativlarga a‘zo bo‘lishi keng tus oldi. 1927 yili Farg‘ona okrugining faqat 7 tumanida 3 mingga yaqin ayol «Qo‘shchi» uyushmasiga a‘zo edi. «Qo‘shchi» uyushmalari xotin-qizlarning savodsizligini bitirish kurslari ochib, ularning madaniy saviyasini ko‘tarishga, faolligini orttirishga hissa qo‘shdi.

O‘zbek xotin-qizlari rahbarlik lavozimlarida ham ishlash layoqatini ko‘rsatdilar. 1927 yilda respublikadagi tuman ijroiya qo‘mitalari a‘zolarining 20 foizi, okrug ijroiya qo‘mitalari a‘zolarining 17 foizi ayollar edi. Jahon Obidova O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o‘rinbosari, Tojixon Shodieva qo‘p yshshar O‘zbekiston MIK Prezidiumi a‘zosi bo‘lgan. Ko‘plab ayollar respublika Xalq Komissarliyutari va boshqa davlat idoralarida bo‘lim boshlig‘i, inspektor lavozimlarida ishlagan.

Ayollar orasidan 30-yillarda mashhur olimlar, yozuvchilar, shoirlar, muhandislar, shifokorlar, o‘qituvchilar, san'atkorlar yetishib chiqa boshladi. O‘sha yillarda Sora Eshonto‘raeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboevalarning iste‘dodi yarqirab ko‘zga tashlandi. Bularning barchasi o‘zbek xotin-kizlarining teng huquqli jamiyat a‘zosi bo‘lish, madaniyat, bilimga intilishlari samarasi edi. Sovet davlatining ayollar borasidagi siyosati shoshma-shosharlik, o‘sha davrdagi kommunistik mafkura bilan sug‘orilgan bo‘lsa ham, O‘zbekiston ayollari asrlar osha qonida mujassamlashgan shijoat, faollik, aql-idrok, millatimizga xos erkinlikka intilish kabi fazilatlari tufayli ko‘pgina ijobiy natijalarga erishdilar.

Sovet hokimiyati sovetlar yo‘rig‘ini egallagan, o‘zining qonunlariga itoat qilishga tayyorligini bildirgan eski ziyoli kadrlardan samarali foydalanish siyosatini olib bordi. Shu bilan birga, mazkur hokimiyat milliy respublikalarda, O‘zbekistonda ziyolilarning e‘tiborli mavqyega ega ekanligini hisobga olgan holda, sotsializm, kommunizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan, itoatgo‘y, yangi, sovet ziyoli kadrlarini shakllantirishga bor diqqatini qaratdi. Bu borada ishchi va dehqonlar orasidan o‘z ziyolilarini yaratish choralari qo‘rildi. Shu maqsadda ishchi va dehqonlardan yetishib chiqqan qobiliyatli amaliyotchilarni rahbarlik va

tashkilotchilik ishlariga ko'tarish va ularni keyin har xil soha kurslari, partiya maktablari, kommunistik universitetlarda o'qitib, malakasini oshirish usulidan keng foydalanildi. Faqat 1925/26 o'quv yilida kommunistik universitetda 504 talaba bo'lib, ularning 237 nafari o'zbekistonlik edi. A. Ikromov, F. Xo'jaev, Y. Oxunboboev, T. Risqulov, N. To'raqulov, D. Ustaboev, A. Rahimboev va boshqalar 20-yillarda rahbarlik lavozimiga ko'tarildilar. Yangi ziyoli kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash jarayoni umumsinfy mafkura asosida bo'ldi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ziyoli kadrlar, birinchi navbatda o'qituvchi va madaniy-oqartuv (ma'rifiy) kadrlari, faqat kurslarda tayyorlanib yetishtirib kelingan bo'lsa, 20-yillarda bu ish asosan yangi ochilgan o'rta maxsus o'quv yurtlari-inpros (o'qituvchilar instituti)lar, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, tibbiyot, musiqa texnikumlari va boshqa o'quv yurtlarida olib borildi. Bu o'quv yurtlari quchog'idan pedagoglar, texniklar, moliya xodimlari, feldsherlar, teatr va musiqa san'ati, matbuot xodimlari va boshqalar yetishib chiqdilar. Shu tariqa 20-yillarda O'zbekiston milliy ziyolilarining yangi otryadlarini shakllantirish avj oldirib yuborildi. Bu ziyolilar respublika iqtisodiyotini yangitdan bunyodga keltirish va madaniyatini rivojlantirish ishiga faollik bilan kirishdilar.

30-yillarda ham O'zbekiston ziyolilari uchta manbadan: eski maktablar xodimlari, ishchi va dehqonlar orasidan chiqqanlar va oliy o'quv yurtlari hamda texnikumlar tarmog'i yetishtirgan kishilardan shakllanishda davom etdi. Eski maktab ziyolilari yangi jamiyat qurilishiga o'z ulushini qo'shib, vijdonan mehnat qildilar. Biroq 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlaridan ularga nisbatan asossiz shubhalanish, gumonsirash boshlandi. Sovet tartiboti ularni ta'qib ostiga oldi, qamoqxonalarga tashladi, keyinchalik esa konsentratsion lagerlarga jo'natib, mehnat ozodligidan mahrum qildi.

Malakali kadrlarni tayyorlab chiqarish uchun oliy o'quv yurtlari va texnikumlar ko'p ish qildi. Mutaxassislar yetishtirib chiqarish yildan-yilga ko'payib bordi. 1941 yilning boshlariga kelganda iqtisodiyot va madaniyatning turli sohalarida 55 mingga yaqin diplomli mutaxassislar ishlar edi. Lekin bu respublikaning oliy va o'rta malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini mutlaqo

qondirolmasdi. Bunday mutaxassislarning soni kamida 173 ming kishini tashkil etishi lozim edi.

Shu yillarda o'zbek ziyolilari ilmi, aqli, salohiyati, matonati, mehnati, xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbati va sadoqati tufayli jamiyatimizning ulkan bunyodkor kuchiga aylandi. Mustabid tuzumning og'ir sharoitlarida barkamol ziyolilarimiz bor imkoniyatlardan foydalangan hodda O'zbekistonning ravnaqi va kelajagi, istiqboli uchun jonbozlik ko'rsatdilar. Bu hol sovet oliy rahbariyatini cho'chitmay qolmadi. Respublika hayoti Markazning qattiq nazorati ostida o'tar edi. Partiyaning yo'l-yo'riqlaridan biroz bo'lsa-da, chetga chiqish siyosiy, aksilinqilobiy harakat deb baholanardi. VKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan o'ylab chiqarilgan «partiyadagi o'ng og'machilik»ning e'lon qilinishi, shuningdek, partiya tashkilotlaridagi guruhbozlik munosabati bilan O'zbekiston Kompartiyasining IV qurultoyi (1929 yil) tazyiq mexanizmini ishga tushirdi.

O'zbekiston jamiyatning hamma tabaqalariga yoyilgan hibsga olish to'liqini ostida qoldi. Olimlar, muhandislar, agronomlar, shoiru yozuvchilar, maorifchilar, san'atkorlar, jurnalistlar ta'qib ostiga olindi va qatag'on qilindi. Respublika o'zining kuchli kadrlaridan ayrildi, ziyolilar avlodlarining payvastaligi vahshiyona ravishda buzildi.

O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki turmasi va boshqa qamoqxonalarda mahbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etildilar. Kuchli va mardonavor kishilar ham o'z yaqinlarining taqsiridan xavotir olib, qilmagan jinoyatlarini bo'yniga olishga majbur bo'lardi. Mahbuslarning ko'plari bu holatdan chiqish, qutulishning yagona yo'li o'z joniga qasd qilish deb bildilar.

Shunday qilib, 30-yillarning oxirida O'zbekistonda insoniylik va demokratiya prinsiplarini oyoq osti qiladigan, har qanday o'zgacha fikr yuritishni kuch bilan bo'g'adigan, ommaviy o'zboshimchalik va zo'rlik bilan Vatanga sodiq necha o'n minglab kishilarni qirib tashlagan totalitar tartibot qaror topdi va kuchaya bordi. Bu xalqning boshiga chinakam fojea bo'lib tushdi va unga nihoyatda og'ir urush sinovlari arafasida ulkan ziyon va talafot yetkazdi.

Xulosa

Sovetlar hukumati va kompartiya amalga oshmaydigan va shirin xayoldan iborat «sostializim va kommunizm» haqidagi dastur, shior va chaqiriqlar asosida amalda Chor Rossiyasiga nisbatan ham ayanchliroq va dahshatliroq mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Bu siyosat «Kommunistik firqaning lenincha milliy siyosati» deb atalmish balandparvoz, havoyi va g'irt yolg'on, faqat targ'ibot va tashviqotdan iborat g'oya va qarashlarda ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Lenincha milliy siyosiy qobig'iga o'ralib O'zbekistonda amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatining maqsadlari nimalardan iborat edi, degan qonuniy savol tug'iladi

Birinchidan, siyosiy sohada Turkistonni milliy jihatdan parchalab tashlash, o'lkaning milliy mustaqil davlat sifatida shakllanishi va oyoqqa turishini abadulabad yo'q qilish, hududiy jihatdan uni Rossiya Federatsiyasining bo'inmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Ikkinchidan, ma'naviy-mafkuraviy sohada o'lkada «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» madaniyat shiori asosida amalda ruslashtirish siyosati olib borilishi va kelajakda bu siyosat o'lkadagi tub yerli aholining «velikoruslar» bilan qo'shilib, assimilyasiyalashib ketishiga xizmat qilmog'i kerak edi.

Sovet hukumati va kompartiya o'zining bu strategik bosh dasturiy maqsadini juda ustalik, ehtiyotkorlik va ayyorlik bilan rejali suratda, ammo og'ishmay amalga

oshirdi. U o'z faoliyatida mustamlaka asoratida yashayotgan millatlarda shubha uyg'otmaslik maqsadida milliy masalada ikkita asosiy xavf bor: biri buyuk davlatchilik shovinizmi va ikkinchisi mahalliy millatchilik degan aqidaga amal qildi. Kompartiya millatchilikning qaysi biri xavfli: buyuk davlatchilik shovinizmimi yoki mahalliy millatchilikmi? degan savolga millatchilikning qaysi biriga qarshi kurash susaytirilgan bo'lsa, o'shanisi xavfli deb e'lon qildi. Amaliy faoliyatda esa sovetlar tarixida buyuk davlatchilik shovinizmi kasaliga muhtalo bo'lgan va u bilan zaharlangan, ushbu kasallik tufayli Turkistonda tub yerli aholini sonsiz-hisobsiz dahshatli qirg'inlar qilgan, shahar va qishloqlarni yondirib, kulini ko'kka sovurgan «buyuk og'alar»dan birortasiga biror-bir keskin chora ko'rilgan emas. Holbuki, buyuk davlatchilik, shovinizmi va mustamlakachilik siyosati har qanday mahalliy millatchilikning aks sadosidir. Bu narsaga ajablanishning hojati yo'q. chunki sovetlar davlati va kompartiyaning hiech qachon qabul qilgan qarori bilan amalda qiladigan ishi bir xil bo'lmagan, doimo birinchisini ikkinchisi inkor etgan. O'zining qonuniy va adolatli milliy haq-huquqini talab qilgan mahalliy millat vakillari esa darhol millatchi sifatida yo'q qilib borildi. Bunga Turkiston o'lkasi xalqlari istiqlol uchun va milliy ozodlik uchun kurash yillarida o'z tajribalarida ko'rib to'la ishonch hosil qildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Rasmiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 349 b.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. - 32 b.
8. Karimov I. “Shahidlar xotirasi” me'moriy majmuasining ochilish marosimidagi ma'ruzasi. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
 - a. 528b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 432 b.

10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 430 b.
11. Karimov I.A. «Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi» // Xalq so‘zi. -2005, 19 yanvar.
12. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz–jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so‘zi. -2005, 29 yanvar.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.84

Asosiy adabiyotlar

1. Azizzoda L. Yangi hayot kurashchilari. – Toshkent: Fan, 1976. -144b.
2. Alimova D.A. Jenskiy vopros v Sredney Azii: Istoriya izucheniya i sovremennyye problemy. (AN RU Institut Istoriy).-Tashkent: Fan, 1991. -132 s.
3. Alimova D.A. Reshenie jenskogo voprosa v Uzbekistane (1917-1941): Kratkiy istoriograficheskiy ocherk (AN RU. Institut Istoriy).-Tashkent: Fan, 1987. -69 s.
4. Alimova D.A. «Hujum»ga zarurat bormidi? // O‘zbekiston adabiyoti va san'ati.- 1992 yil, 11 sentyabr.
5. Aminova R.X. Oktyabr i reshenie jenskogo voprosa v Uzbekistane. - Tashkent: Fan, 1975. -353s.
6. Aminova R.X. Agrarnoe preobrazovanie v Uzbekistane 20-x godov. // ONU-1989- № 9.S.10
7. Aminova R.X. Agrarnoe preobrazovanie v Uzbekistane nakanune sploshnoy kollektivizatsii. 1925-1929. – Tashkent: Fan, 1969. -468 s.
8. Aminova R.X. Kollektivizatsiya v Uzbekistane: kak eto bylo? // Kommunist Uzbekistana. -1989. -№10.S.81.

9. Aminova R.X. Kollektivlashtirish-qashshoqlashtirish demak // Sharq yulduzi. -1992 -№12.-183 b.
- 10.An'analar, Din va ayollarning ijtimoiy maqomi //O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining ahvoli to'g'risida ma'ruza, RBEC // Undz, 1999. -95 b.
11. Begmatov O. Qishloqda sotsial siyosat masalalari. –Toshkent: Mehnat,1990. – 120 b.
- 12.Bikjanova M. Semya v kolxozax Uzbekistana. -Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1955.-134s.
- 13.22. Bobojonova D.B. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.- Toshkent: Sharq, 1999.-158b.
- 14.Bobojonova D.B. Aholi salomatligi va ekologik muammolar. -Toshkent: Fan, 1996. -22 b.
15. Bobojonova D.B. yengil sanoat va fan-texnika taraqqiyoti. -Toshkent: Fan, 1998. -24 b.
- 16.Vaxabov M.V. Islam i jeniçina. –Moskva: Мыsl,1968.-168s.
- 17.Ziyoev X. Tarix – o'tmish va kelajak ko'zgusi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2000. – 288b.
18. Yo'ldoshev N. Ma'rifat fidoiylari // Guliston,-Toshkent,- 1991. -№4. -21 b.
19. Madrahimova R. O'zbekiston xotin-qizlarining ulug' Vatan urushi yillaridagi mehnat va harbiy jasoratlari.-Toshkent: Fan, 1981.- 63 b.
- 20.Mamadazimov M. Yer hammamiz uchun yagona uy. Toshkent: Fan, 1990, - 38 b.
- 21.Oxunova M.Sovet O'zbekistoni xotin-qizlarining jang maydonlari va mehnat frontidagi jasorati// O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. –Toshkent, 1975.- №5.-44 b.
22. Sulaymonova X. O'zbekiston xotin-qizlari sotsialistik qurilishda.-Toshkent: O'zdavnashr, 1955.- 51 b.
- 23.Sulaymonova X. O'zbekiston xotin-qizlari kommunistik qurilishning aktiv qatnashchilari. -Toshkent: O'zSSR FA, 1955.-39 b.

24. Toshxo'jaeva N. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945yy.)-Toshkent: Fan, 1985. –55 b.
25. Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. / Loyiha rahbari, mas'ul muharrir D.A.Alimova.-Toshkent: Sharq, 2001. - 464 b.
26. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. /Davriy to'plam. -Toshkent: Sharq, 1999. -№2.- 208 b.
27. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000. - 688 b.
28. Eshto'xtaev X. Milliy kadrlar-«xalq dushmanlari»// Fan va turmush.- Toshkent, 1991-№5. 23-25 b.
29. www.ziyonet.uz.
30. www.google.uz.
31. www.istedod.uz
32. www.ppf.uni.udm.ru
33. www.migration.uz.
34. [http: // www rpolit.narod.ru](http://www.rpolit.narod.ru).
35. <http://www.gov.uz>